

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
PEDAGOGIKA - PSIXOLOGIYA FAKUL'TETI
DEFEKTOLOGIYA KAFEDRASI**

“Himoya qilishga ruxsat beraman”
Pedagogika - psixologiya fakul'teti dekani
_____ prof.X.A.Meliyev
“ ____ ” _____ 2013 y.

**5141800 – Defektologiya yo'nalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun**

**“ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR MAKTABIDA
DIDAKTIK TAMOYILLARNI AMALGA OSHIRISH USULLARI”**

MAVZUSIDA BAJARILGAN

BITI RUV MALAKAVIY ISH

Bajaruvchi: Bozorov Zarafshon Ochil o'g'li
401 guruh talabasi

Ilmiy rahbar: tib.f.n.T.Ikromov

Ishni himoyaga tavsiya etaman tib.f.n.T.
Ikromov _____
(imzo)

BMI Defektologiya kafedrası yig'ilishining qarori bilan (Qaror №____,
____.05.2013 y) himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri t.f.n: G`.Arifxodjaev

(imzo)

JIZZAX - 2013

MUNDARIJA

Kirish.....	3-5
--------------------	------------

I. BOB. KAR BOLALAR MAKTABI DIDAKTIKASI.

1.1. Surdopedagogikaning asosiy maqsad va vazifalari.....	6-14
1.2. Kar bolalar maktabining o'quv rejasi, o'quv dasturlari va darsliklar taxlili. 15-18	
1.3. Karlar maktabida ta'lim samaradrligini oshiruvchi didaktik tamoyillar va ularning ularning mazmuni.....	19-31

II.Bob.KAR BOLALAR SHAXS SIFATIDA SHAKLLANISHIDA DIDAKTIK TAMOIYLLARNING O'RNI.

2.1. Kar bolalar bolalar ta'lim - tarbiyasi samaradorligini oshirishda didaktik tamoyillarning o'zaro mutanosibligi.....	32-34
2.2. Kar bolalar eshitish idrokini rivojlantirishda didaktik tamoiylarning vazifasi.....	35-38
2.3. Kar bolalar tafakkurini shakllantirishda didaktik tamoiylardan samarali foydalanish yo'llari.....	39-42

Xulosa.....	43-46
--------------------	--------------

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	47-48
--	--------------

KIRISH

Jamiyatimizning yangilanishi va demokratlashuvi, O'zbekistonning davlat mustaqilligini qo'lga kiritishidan keyin yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar munosabati bilan yosh avlodga ta'lim va tarbiya berish sifatlarini oshirishga bo'lgan tashkiliy, psixologik - pedagogik hamda metodik yondashuvini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor bilan qaralayapti.

“Ta'lim to'g'risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash” milliy dasturini hayotga tatbiq etish davlat siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishdagi uch bosqichdan biri ijtimoiy himoyaning kafolatlanishi masalasini hal etish bosqichidir.

O'zbekiston Respublikasining nogironlar bilan olib borayotgan davlat siyosati “O'zbekiston Respublikasida nogironlarning ijtimoiy himoyalaniishi to'g'risidagi” qonuni 1991-yil bilan belgilanadi. Bu qonun aholining maskur guruhiga boshqa fuqarolar bilan teng asosda to'laqonli hayot kechirish jamiyat iqtisodiy va siyosiy hayotida faol qatnashish, shuningdek, o'zining fuqarolik majburiyatlarini bajarishga yordam beradigan imkoniyat va shart-sharoitlar yaratish maqsadida huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha tadbirlar tizimini ko'zda tutadi. Bu qonun davlat bilan aholi sog'ligini himoya qilish, nogironlikning oldini olish va nogironlarning jamiyat hayotiga singib ketishi uchun shart-sharoitlar yaratishgan, ijtimoiy jamiyatlar o'rtasidagi munosabatlarni yo'lga qo'yadigan dastlabki jiddiy huquqiy hujjatlardan biri hisoblanadi. Nogironlikning oldini olish maqsadlarining ijobiy hal qilinishi nogironlarning ijtimoiy tiklanish bo'yicha davlat dasturini ishlab chiqish va hayotga tadbiq qilish bilan chambarchas bog'liqdir.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan ta'limiy islohotlar yagona maqsad barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalash hamda tayyorlashga yo'naltirilgan bo'lib mazkur maqsadning to'laqonli amalga oshirilishi uzluksiz ta'lim tizimini qayta shakllantirish uning mazmunini ijtimoiy talablarga muvofiq ravishda yangilash asosida ta'minlanadi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” g’oyalariga muvofiq asoslangan kadrlar tayyorlash milliy modeli esa o’z mohiyatiga ko’ra barkamol shaxs va malakali mutaxassislarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Respublika taraqqiyotining asosiy omillaridan biri malakali kadrlar ekanligi borasidagi g’oyalar Prezident I.A.Karimovning asoslarida quyidagicha yoritiladi: “Biz hayotimizning turli jabholarida xalq xo’jaligining barcha sohalarida tub islohotlarni amalga oshirish yangilash sari borar ekanmiz ushbu islohotlarning turmush tarzini ijobiy tomonga o’zlashtirishi ma’naviy yuksalishimizga ko’mak berishi hamda milliy g’urur va iftixorimizni kuchaytirishi ko’p jihatdan har tomonlama yirik kadrlarga bog’liq ekanini unutmasligimiz lozim. Respublikamizning iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy jihatdan ravnaq topishida bu sohalaridagi muammolarni hal qilishimizda ham milliy kadrlar bosh omillardan biri bo’ladi”.

Barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalashda muhim o’rin tutuvchi ta’lim tizimiga ilg’or g’oyalarni tatbiq etish va shu asosda uning mazmunini takomillashtirish ijtimoiy zaruriyat sanaladi.

Tadqiqot ob’ekti

Eshitishida nuqsoni bor bolalar maxsus maktab internati.

Tadqiqot sebekti.

Eshitishida nuqsoni bor bola

Tadqiqot maqsadi.

Eshitishida nuqsoni bor bolalarga ta’lim-tarbiya berish jarayonida didaktik tamoyillardan foydalanish.

Tadqiqot vazifasi

- eshitishida nuqsoni bor bolalarga ta’lim berishda didaktik tamoyillarning o’zaro mutanosibliigi.

- Eshitish idrokini shakllantirishda didaktik tamoyillardan samarali foydalanish.

- Eshitishida nuqsoni bor bolalar shaxs sifatida shakllanishida didaktik tamoyillarning o’rni.

- Kar bolalarda idrokni shakllantirishda didaktik tamoyillarning vazifasi
- Kar bolalar tafakkurini shakllantirishda didaktik tamoyillardan samarali foydalanish

Tadqiqotni metodologik asosi

Prezident asarlari “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “Ta’lim to’g’risidagi qonuni”, “Hukumat tomonidan ishlab chiqilgan yangi farmonlar”, “Maxsus pedagogikaga doir ilmiy asarlar”

Tadqiqot ishining dolzarbligi

Eshitishda nuqsoni bo’lgan bolalar maktabida didaktik tamoyillarni amalga oshirish va shu orqali ta’lim tarbiya samaradorligini qo’lga kiritish.

Tadqiqotning tuzilishi: Bitiruv malakaviy ish kirish, ikki bob, olti paragraf, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan tashkil topgan.

Abdulla Qodiriy nomli Jizzax Davlat pedagogika instituti Pedagogika-psixologiya fakul'teti, Defektologiya ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi Bozorov Zarafshonning "Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktabida didaktik tamoyillarni amalga oshirish usullari" nomli bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbar

X U L O S A S I

Kar o'quvchilarning umumiy va nutqiy rivojlanish xususiyatlarini ta'lim mazmuniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy – iqtisodiy va ilmiy – texnik rivojlanish, pedagogika fanning yutuqlari, surdopedagogikaning nazariyasi va amaliyoti keyinchalik ta'lim mazmunini doimo takomillashuvini talab etadi.

Bozorov Zarafshonning tadqiqot ishini dolzarbligi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktabida didaktik tamoyillarni amalga oshirish va shu orqali ta'lim tarbiya samaradorligini qo'lga kiritishning ijtimoiy ahamiyatini o'rganishga qaratilgan.

Bitiruv malakaviy ishining muammoli tomoni qilib, eshitishda nuqsoni bor bolalar shaxs sifatida shakllanishida didaktik tamoyillarning o'ri, kar bolalarda idrokni shakllantirishda didaktik tamoyillarning vazifasi, kar bolalar tafakkurini shakllantirishda didaktik tamoyillardan samarali foydalanish korreksion yo'nalganligi va yangicha texnologiyasini asoslab berishga harakat qilingan.

Tadqiqot ishining birinchi bobi Kar bolalar maktabi didaktikasi deb nomlanib, surdopedagogikaning asosiy maqsad va vazifalari, kar bolalar maktabining o'quv rejasi, o'quv dasturlari va darsliklar taxlili, karlar maktabida ta'lim samaradorligini oshiruvchi didaktik tamoyillar va ularning amalga oshirilishi ishlarning korreksion xususiyatlarini olimlar tomonidan o'rganilish jarayonini yoritishga harakat qilgan.

Tadqiqotning ikkinchi bobi Kar bolalar shaxs sifatida shakllanishida didaktik tamoyillarning o'ri deb nomlanib, ushbu bobda tadqiqotchi, kar bolalar bolalar ta'lim - tarbiyasi samaradorligini oshirishda didaktik tamoyillarning o'zaro mutanosibligi, kar bolalar eshitish idrokini rivojlantirishda didaktik tamoyillardan to'g'ri foydalanish, kar bolalar tafakkurini shakllantirishda didaktik tamoyillardan samarali foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan. Muallif o'z ishda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktabida kuzatish ishlarini olib borgan va xulosa qilgan. Ushbu kuzatishlar natijalari muallifga tanlangan mavzuni asoslab berishga imkon bergan.

Bozorov Zarafshon tomonidan bajarilgan bitiruv malakaviy ishi xususan ishlab chiqilgan va o'rganilgan. Ish bitiruv malakaviy ishiga qo'yilgan barcha talablarga javob beradi.

Ilmiy rahbar:

tib.f.n.T. Ikromov

Abdulla Qodiriy nomli Jizzax Davlat pedagogika instituti Pedagogika-psixologiya fakul'teti, Defektologiya ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi Bozorov Zarafshonning "Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar maktabida didaktik tamoyillarni amalga oshirish usullari" nomli bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Defektologiya yo'nalishi bitiruvchisi Bozorov Zarafshonning bitiruv malakaviy ishi "Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar maktabida didaktik tamoyillarni amalga oshirish usullari" mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, kirish, 2 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ish 54 betdan iborat. Talaba o'z ishida eshitishida nuqsoni bor bolalarga ta'lim-tarbiya berish qonuniyatlarini o'rganish, eshitish idrokini rivojlantirish bolalarni ma'limga qiziqishlarini rivojlantirish, erta tashxis muammolarini hal etish, ularni hayotda o'z o'rnini topish kabi muammolarni o'rganishga harakat qilgan.

Talaba Bozorov Zarafshonning bitiruv malakaviy ishi aynan ana shu muammoning dolzarbligini to'liq asoslab bergan. Tadqiqot ishining birinchi bobida talaba kar bolalar maktabi didaktikasi va uni amalgam oshirish rejalarini korreksion xususiyatlarini olimlar tomonidan tadbiq qilish jarayonini o'rganib chiqqan va yoritishga harakat qilgan.

Tadqiqotning ikkinchi bobida tadqiqotchining kar bolalar shaxs sifatida shakllanishida didaktik tamoyillarning o'rnini va kar bolalar bolalar ta'lim - tarbiyasi samaradorligini oshirishda didaktik tamoyillarning o'zaro mutanosibligi, ularni amalgam oshirish yollari to'g'risida fikrlari yoritilgan.

Maxsus maktab internatlarda sharq mutaffakkirlarning shaxsning shakllanishida maktab hamda o'qituvchining o'rni va roli beqiyos ekanligini, "Asosiysi bu bolalarga muhabbat, o'qituvchining nodonligi maktab uchun zarardir. U o'z fanini mukammal bilishi va chuqur bilimga ega bo'lishi, xalqning talablarini ham tushunishi, hammaga o'mak bo'lishi kerak", degan asosiy pedagogik qarashlariga amal qilish haqida talaba o'z fikrini ifoda eta olgan. Bitiruv malakaviy ishda mavzuning muammoli tomonlari yoritib berilgan, shu bilan birga ushbu muammolarni bartaraf etishga yetarlicha to'xtalgan. Ushbu bajarilgan bitiruv malakaviy ish talabga javob beradi. Talaba tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar pedagoglar uchun muhim talablar sifatida xizmat qiladi degan umiddaman.

Taqrizchi:

**Maktabgacha ta'lim nazariyasi va
uslubiyati kafedrası mudiri
dots.R.Abdurasulov**

**Abdulla Qodiriy nomli Jizzax Davlat pedagogika instituti Pedagogika-
psixologiya fakul'teti, Defektologiya ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi Bozorov
Zarafshonning "Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar maktabida didaktik
tamoyillarni amalga oshirish usullari" nomli bitiruv malakaviy ishiga**

T A Q R I Z

Hozirgi kunda jamiyatimiz uchun har tomonlama rivojlangan fan texnika taraqqiyotini hayotga tadbqiq eta oladigan yetuk malakali kadrlarni tayorlash muhim masalalardan biridir. Kar bolalar maxsus maktab-internatlarining asosiy vazifasi - alohida yordamga muhtoj bolalarni mustaqil hayotga tayyorlash, bolaning bilish faoliyatidagi kamchiliklarini bartaraf etish, undagi barcha a'zolar funksiyalarini faol ravishda yaxshilash, ruhiy jarayonlarni ijobiy tarkib toptirish, kamchiligi bor bolalarda Mustaqil Vatanimiz uchun eng zarur asosiy sifatlarni, barkamollikni hamda axloqiy odat va fazilatlarni shakllantirishdan iboratdir.

Talaba Bozorov Zarafshon bitiruv malakaviy ishida aynan ushbu muammoni hal etish, asoslab berishga harakat qilgan.

Tadqiqotning I-bobida talaba Tadqiqot ishining birinchi bobida kar bolalar maktabining o'quv rejasi, o'quv dasturlari va darsliklar taxlili, karlar maktabida ta'lim samaradrligini oshiruvchi didaktik tamoyillar va ularning amalga oshirilishini mazmunini yoritishga xarakat qilgan.

Ikkinchi bobda asosan kar bolalar shaxs sifatida shakllanishida didaktik tamoiyllarning o'rni, kar bolalar bolalar ta'lim - tarbiyasi samaradorligini oshirishda didaktik tamoyillarning o'zaro mutanosibligi, kar bolalar eshitish idrokini rivojlantirishda didaktik tamoiyllardan to'g'ri foydalanish, kar bolalar tafakkurini shakllantirish ishlari asosida eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar mustaqilligi va ijodiy yondoshuvini rivojlantirish, irishning asoslari yoritilgan. Muallif o'z ishda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar maktabida kuzatish ishlarini olib borgan va xulosa

qilgan.

Tadqiqotchi tomonidan bajarilgan bitiruv malakaviy ishi xususan ishlab chiqilgan va o'rganilgan, nazariy qism maktab ta'limida pedagoglar uchun muhim amaliy ahamiyatga ega. Ish bitiruv malakaviy ishiga qo'yilgan talablarga javob beradi.

Taqrizchi:

Jizzax viloyati XTBga qarashli Kar bolalar internati direktori_____

I. BOB. KAR BOLALAR MAKTABI DIDAKTIKASI

1.1. Surdopedagogikaning asosiy maqsad va vazifalari

Surdopedagogikaning asosiy vazifalari eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni pedagogik jihatdan har tomonlama o'rganish, maxsus maktabda til o'qitishni takomillashtirish, eshitish qobiliyatini rivojlantirish va talaffuzga o'rgatish ishlarini yuqori pog'onaga ko'tarish. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish qonuniyatlarini o'rganish, eshitish idrokini rivojlantirish tizimini takomillashtirish, o'z bitiruvchilarini ma'lum bir kasb yo'nalishi bo'yicha mehnat qilishlariga erishish, o'qitishning texnik vositalarini takomillashtirish, bog'cha va maktab talimining uzluksizligini ta'minlash, respublika bo'yicha sog'liqni saqlash hamda xalq ta'limi tarmoqlari ishlarini muvofiqlashtirish, erta tashxis diagnozi muammolarini hal etishdan iboratdir.

Surdopedagogika uchun buyuk psixolog defektolog L.S Vigotskiyning "Nuqsonning murakkab tuzilishi" haqidagi ta'limoti juda katta ahamiyatga ega. Ushbu ta'limot bo'yicha, birlamchi nuqson o'z navbatida ikkilamchi nuqsonni yetaklab keladi. Mana shu ikkilamchi nuqson o'z ortidan ko'pgina nuqsonlarni yetaklab kelishi shaxsning me'yorida rivojlanishiga ma'lum to'sqinliklarni yuzaga keltiradi.

Defektologiyaning vazifasi aynan mana shu ikkilamchi nuqsonni bartaraf etishdan iborat. Surdopedagogika sohasida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar va

kattalarni maktabda o'qitishning ko'plab metodlari mavjud.

Surdopedagogika umumiy pedagogikaning tamoyillaridan, metodlaridan ta'lim berish va tarbiyalash vositalaridan keng foydalanadi. Bu metodlar eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning tarbiyasi, o'qishida va rivojlanishida qo'llaniladi. Surdopedagogika yana surdopsixologiya bilan chambarchas bog'langan. Surdopsixologiya kar va zaif eshituvchi bolalarning ruxiy rivojlanishi va shaxs shakllanishining rivojlanishini ochib beradi.

Maxsus maktablarda ta'lim-tarbiya berishning sifatini tekshirish uchun maxsus surdopsixologik tadqiqotlar olib boradi. Maxsus maktablarda tovushni kuchaytiradigan moslamalar, taktik tebranish uskunalaridan keng foydalaniladi.

Hozirgi vaqtda surdopedagogika kar va zaif eshituvchilarning talaffuz qilishini, o'qitishni yanada rivojlanishida surdotexnikaviy asboblardan keng ko'lamda foydalanishni talab qilyapti. Bunda bilishimiz mumkinki, surdopedagogika sildotexnika bilan bog'liq

Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari jahon pedagogikasi rivojiga qo'shilgan o'lgan hissasidir. Ularning boy merosi o'qituvchi (pedagog)ning ma'naviyaxloqiy g'iyofasi va kasbiy yetukligini takomillashtirishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Mutafakkirlar tomonidan ilgari surilgan qarashlar o'rta asr sharoitida inson, uni tarbiyalash, shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta'minlovchi omillar, insonparvarlik royalarini mazmunan boyitish bilan birga barcha davrlar uchun birdek ahamiyatga ega ma'naviy - axloqiy Kontsepsiyaning shakllanishini ta'minladi. Quyida biz Muhammad alXorazmiy (783-850 yy.), Abu Nasr Forobiy (873-950 yy.), Abu Rayhon Beruniy (973-1050 yy.), Abu Ali ibn Sino (980-1037 yy.), Umar Xayyom (1048-1123 yy.), Burhoniddin Zarnujiy (1150 yilda tug'ilgan, vafot etgan yili noma'lum), Muslihiddin Sa'diy (1184 - 1291 yy.), Abdurahmon Jomiy (1414-1494 yy.), Alisher Navoiy (1441-1501 yy.), Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530 yy.)

hamda Ahmad Yugnakiy (XI asr) kabi Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari va ularning mohiyati xususida so'z yuritamiz.

Muhammad al-Xorazmiy inson haqida falsafiy fikr yuritgan. Alloma insonning aql imkoniyatiga yuqori baho berib, insonning qadri uning bilimi va mahoratida, deya hisoblaydi.

Muhammad al - Xorazmiy tomonidan asoslab berilgan pedagogik va didaktik tamoyillar, ta'lim-tarbiya jarayonining shakli va usullari quyidagilardan iborat ekanligini ta'kidlab o'tadi:

- kuzatayotgan hodisa va voqea mohiyatini tasvirlash, ketma - ketlikda tushuntirish;
- Savol - javob usuli;
- tajriba, kuzatish usuli;
- algoritmik usul;
- mustaqillik;
- ijodiy faollik

Abu Nasr Forobiy insonni har tomonlama rivojlantirish muammosini tahlil etarekan, ushbu o'rinda ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchining roli alohida ahamiyatga ega ekanligiga urg'u beradi.

Mutafakkir tomonidan asoslangan ta'limot o'zida quyidagi asosiy g'oyalarni ifodalaydi:

-ma'naviy tarbiyani tashkil etish va shaxsda aqliy sifatlarni tarbiyalash uning kamolotga erishishini kafolatlaydi;

-odob tarbiyalanuvchi qiyofasida namoyon bo'luvchi axloqiy hislatlarning eng asosiysi bo'lib, insonda olijanob sifatlarni tarbiyalashda asos bo'lib xizmat qiladi. Shaxsda odob ko'nikmalarini shakllantirishda ularga inson xulqi va odobining muhim ma'naviy - axloqiy sifatlarni ekanligini hayotiy misollar yordamida yoritib berish muhim ahamiyatga ega;

-tarbiyalanuvchida irodaning hosil bo'lishi atrof – muhit hamda tarbiyaviy faoliyat mazmuniga ko'p jihatdan bog'liq.

Abu Nasr Forobiy samaradorligini yuqori baholagan pedagogik didaktik tamoyillar, ta'lim-tarbiya shakllari va usullari:

- ta'limning nazariy va amaliy yo'nalganligi; bilimlarning ilmiyligi va amaliy ahamiyatga egaligi;
- tizimliliigi, mantiqiyligi va ketma - ketligi;
- hayot bilan bog'liqligi; tushunarli bo'lishi;
- kuzatish va tajribalar; dialektik isbotli, tortishuvli, ritorik va she'riy mulohaza yuritish usullari; induksiya va deduktsiya usuli;
- mashqlarni bajarish va takrorlash.

Abu Rayhon Beruniy o'z qarashlarining mohiyatiga ko'ra demokratik pedagogika tarafdoridir.

U ong, idrok jarayoni va uning kechishini puxta o'rganishga harakat qilgan.

Idrok etish faoliyatini faollashtiruvchi o'qitish shakl va usullarini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Alloma quyidagi pedagogik tamoyillar, o'quv tarbiya shakllari va usullarining shaxsni kamolga etkazishdagi o'rni va roli beqiyos ekanligini aytadi:

-berilayotgan ma'lumotning tushunarliliigi (alloma bilimlarni berishda o'quvchi uchun tanish bo'lgan (yaqindagi) ob'ektlar asosida unga tanish bo'lmagan (uzoqdagi) ob'ektlarning mohiyatini yoritib berish, ma'lum bilimlar negizida noma'lum tushunchalarning asoslanishi ijobiy natijalarni kafolatlashiga e'tiborni qaratadi);

-o'quvchilarni ilmiy asoslar bilan qurollantirish (ushbu jarayonda o'quvchini ilmiy adabiyotlar bilan tanishtirish, unda tajriba o'tkazish va amaliy kuzatishni yo'lga qo'yish ko'nikmalarini shakllantirish, o'zlashtirilgan ma'lumotlarni doimiy ravishda takrorlab borish bilimlarning puxta o'zlashtirilishiga yordam berishini qayd etib o'tadi).

Abu Ali ibn Sino ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi quyidagi talablarga muvofiq faoliyat olib borishi lozimligini uqtiradi:

- bolalar bilan munosabatni tashkil etishda mo'tadil (o'rtacha) bo'lish;
- o'quvchilarning bilim va mahoratlaridan hayotda foydalana olishlariga e'tibor

berish;

- bolalar bilan ishlashda turli usullarni qo'llay olish;
- bolalarda bilim olishga nisbatan qiziqishni kuchaytirish;
- o'qituvchining gaplari va fikri o'quvchilarga tushunarli bo'lishi uchun har bir so'zini imo ishoralar bilan bajarishi (binobarin, bu uslub bolalarda hishayajonni uygotadi);
- tarbiyalanuvchilar ongiga quyidagi yuksak axloqiy tamoyilni singdirishi: "faqat o'zi uchun emas boshqalar uchun ham yashash kerak".

Alloma asarlarida quyidagi pedagogik va didaktik tamoyillar, o'quv - tarbiya shakl va usullari xususida so'z yuritiladi:

tajriba;

- sabablarning o'zaro bog'liqligi tamoyili, analiz, sintez, umumlashtirish;
- bolani darhol kitob o'qish bilan bog'lab qo'ymaslik;
- jamo bo'lib o'qish;
- mashqlar (ularning me'yorlanganligi, imkoniyati borligi, jamoatchilik - o'quvchilarning qobiliyati va imkoniyatlarini hisobga olish);
- o'qitishning asta - sekin, ketma - ketligi, osonidan murakkabga o'tib borishi;
- o'quvchining individualliklarini hisobga olib, tushunarli bo'lishi;
- nazariya bilan amaliyotning bog'liqligi, umumiydan xususiyyga o'tish, tizimlilik va mantiqiylik ifoda etish va mulohazalarining bir tekisligi va ketma - ketligi kabi usullar; kuzatish. tajriba, amaliyot.

Umar Xayyomning e'tirof etishicha, tarbiyaning maqsadi to'g'ri fikr yurituvchi, aqlli fikrlay oladigan insonni shaxs sifatida shakllantirishdan iborat.

Alloma birinchi o'rinda shaxsning intellektual aqliy imkoniyatlariga e'tiborni qaratadi hamda insonda asta - sekinlik bilan, muntazam ravishda ijobiy hislatlarni shakllantirib borish zarur, deb hisoblaydi. Allomaning fikricha, agarda inson yaxshi hislatlarga ega bo'lmasa, ularni o'zi harakat qilib shakllantira olishi, salbiylarini esa iroda kuchi bilan yo'qotishi keraq

Umar Xayyom tarbiyada odatlar, fikrlash hamda anglab etishni asosiy deb hisoblaydi. To'g'ri va aniq fikrlash, shuningdek aql, intizom va o'zi ustida doimo ishlash, ijobiy natijalarga erishish uchun irodasini kuchli qilib tarbiyalash kabi holatlar alloma tomonidan ijobiy baholanadi.

O'z asarlarida Umar Xayyom insonparvarlik va erksevarlik g'oyalarini ifoda etgan, insonni ulug'lagan, xususan, "inson go'yoki ko'zgudagi dunyodek ko'p qirralidir. U juda kichik nochor, zaifdir va uning o'zi cheksiz buyukdir".

Alloma insonning buyukligini ta'kidlaydi, katta yoshli kishilarni yosh avdlodga ishonch bildirishga chaqiradi. Umar Xayyom tomonidan quyidagi pedagogik va didaktik tamoyillarning ahamiyati yuqori baholanadi:

- bilimni to'la, chuqur anglagan holda, mohiyatini tushunib o'zlashtirish;
- bilimlarni mustaqil egallash; mustaqil mulohaza yuritish (fikrlash faoliyatini tashkil etish);
- hayotiy hodisalarning mohiyatini o'rganish;
- tajriba, takrorlash (harakat hamda faoliyatni ko'p marta takrorlash);
- bir vaqtning o'zida ta'limning turli usullarini qo'llash.

Muslihiddin Sa'diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy hamda Zahiriddin Muhammad Bobur kabi allomalar ham pedagogika fanining rivojiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shganlar, Muslihiddin Sa'diy o'z asarlarida quyidagi qarashlarni yoritadi: bilimlarni o'zlashtirishda shaxsning faol ishtirok etishi, tug'ma iste'dod hamda qobiliyatni rivojlantirish uchun muayyan shart-sharoitlarning mavjudligi, bilimlarning muntazamligi, tushunarligi; bilimlarni amaliy hayotda qo'llay olish; shaxs kamolotini ta'minlashda mehnat tarbiyasi va ta'limning yetakchilik roli.

Abdurahmon Jomiy shaxsni tarbiyalash va unga bilimlarni berishda quyidagilarga amal qilishni talab etadi: fanning hayot bilan aloqasini ta'minlash; o'quvchining xususiyat va qobiliyatlarini takomillashtirish; o'zlashtirilgan bilimlarni tahlil etish va sintezlash, umumlashtirish; etik - didaktik

nasihatlardan foydalanish.

Alisher Navoiy shaxsning shakllanishida maktab hamda o'qituvchining o'rni va roli beqiyos ekanligini ta'kidlar ekan, "Asosiysi bu bolalarga muhabbat, o'qituvchining nodonligi maktab uchun zarardir.

U o'z fanini mukammal bilishi va chuqur bilimga ega bo'lishi, xalqning talablarini ham tushunishi, hammaga o'rnak bo'lishi kerak", deya ta'kidlab o'tadi.

Alisher Navoiyning asosiy pedagogik qarashlari:

- insonparvarlik insonni hurmat qilish, uning har tomonlama rivojlanishi;
- faqat o'z millatinigina emas, boshqa millatlarni ham hurmat qilish;tabiatning insonni takomillashtirishga yordam beruvchi ta'sirchan vosita ekanligi; ma'rifatparvarlik bilim insonning ko'rkidir;

- idrok etish qobiliyatlari, haqiqatni anglab etishga xizmat qilish, haqiqatni idrok etish va tushunish, sezgi va aqlning zarurligi, sezgi natijalari, ularni his etish va aqlda aks ettirilishi;

- shaxsning ijobiy sifatlari (insonni sevish, mehribonlik, muloyimlik, nazokatlik, kamtarinlik, vazminlik, sahiylik va mehnatsevarlik kabilar)ni tarbiyalashning zarurligi;

- o'qituvchining faoliyatiga qo'yiladigan talablar.

Zahiriddin Muhammad Bobur o'rta asr madaniyati, adabiyoti va she'riyatida o'ziga xos o'rin egallagan shoir, olim, yirik davlat arbobi va sarkarda bo'lish bilan birga shaxs va uning ma'naviyatini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratgan.

Zahiriddin Muhammad Boburning fikriga ko'ra, o'quvchilarning faoliyati quyidagi talablarga muvofiq amalga oshirilishi lozim:

- o'quvchilarning qobiliyat va xususiyatlarini hisobga olish;
- o'quvchilarning bilimlari, shuningdek bilimlarni o'zlashtirish faoliyatiga nisbatan talabni oshirish;

- o'quvchilarda mavjud bilimlarini tahlil, sintez qilish va umumlashtirishga imkon beruvchi qobiliyat va malakalarini shakllantirish;

-bolalarni tarbiyalashga nisbatan etik - didaktik yondashuv.

Burhoniddin Zarnujiy o'zining "Ta'lim olish yo'lida o'quvchiga maslahatlar" nomli asarida o'qitish jarayonini tashkil etish yuzasidan tavsiyalar beradi, shuningdek o'qituvchiga hurmat bilan munosabatda bo'lish kerakligini ta'kidlaydi.

Burhoniddin Zarnujiy tomonidan ko'rsatgan pedagogik g'oyalar, didaktik tamoyillar, o'quv shakllari va usullari quyidagilar:

- ta'lim olishni ongli ravishda istash, intilish va tirishqoqlik;
- fan va bilimning roli, ularni egallash va takomillashtirish;
- ta'limning ketma - ketligi, muntazamligi, uzluksizligi, tizimliligi va tushunarililigi;
- nazariya bilan amaliyotning bogliqligi;
- o'zlashtirilgan bilimlarni tahlil qilish, sintezlash, umumlashtirish;
- darsni olib borish tartibi;
- suhbat, mulohaza, muhokama;
- bolalarni yoqtirish va ularga maslahatlar berish;
- o'quvchilarda mustaqil bilim olish ko'nikmalarini shakllantirish.

Mahmudxo'ja Behbudiy milliy ta'lim taraqqiyoti, uning mazmuni har tomonlama rivojlangan va bilimli insonni tarbiyalashga xizmat qilishini ta'kidlab o'tadi. Zero, istiqbol ilmiy yoshlar qo'lida ekanligiga ishonch bildiradi. Alloma ta'lim jarayonini tashkil etishda mavjud usullarni takomillashtirib borish, yangi usullarini yaratish maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidlaydi. Mahmudxo'ja Behbudiy o'qituvchining ta'lim va tarbiya jarayonining yetakchisi, faol ishtirokchisi bo'lishi zarurligini uqtirar ekan, quyidagi fikrni ilgari suradi: "U har tomonlama rivojlangan va chuqur bilimga ega bo'lishi, har doim yangi avlodni tarbiyalash va ta'lim berishning yangi usullarini izlashi kerak".

Abdulla Avloniy pedagogikaning quyidagi eng muhim masalalarini o'rganadi:

- ta'lim va tarbiya birligi;
- axloqiy tarbiyani tashkil etish, o'quvchilarda odob - axloq sifatlarini

shakllantirish;

- bolaning aqliy qobiliyatini rivojlantirish;

- o'quvchilarda bilim insonning eng muhim hislati ekanligi borasidagi tushunchani qaror toptirish.

Abdulla Avloniy o'qituvchi shaxsi va uning faoliyati mazmuni xususida to'xtalar ekan, o'qituvchi shaxsida quyidagi sifatlarni tarbiyalash muhim deb hisoblaydi:

- pedagogik odob, bilimli bo'lishi, faoliyatni olib borish va shaxsiy hayotda barchaga o'rnak bo'la olishi;

- bolada ma'naviy axloqiy sifatlarni shakllantirish va ularni takomillashtirish; bolalarning aqliy qobiliyatlari va xotiralarini o'stirish, rivojlantirish; faqatgina o'qish va yozishgagina emas, balki har bir narsaning mohiyatini to'g'ri tushunish, yaxshini pastdan ajrata bilishga o'rgatish.

Ahmad Yugnakiy tomonidan yaratilgan asarlarda ilmning foydasi, bilimlarni o'zlashtirish hayotiy zaruriyat ekanligi borasidagi fikrlar targ'ib etiladi. Alloma ilmsizlikning zararini hayotiy misollar yordamida ko'rsatishga urinadi. Maktablar va oilalarda yo'lga qo'yilayotgan ta'lim-tarbiya bolada ma'naviy - axloqiy va aqliy sifatlarning tarbiyalanishiga yo'naltirilishi zarur deb hisoblaydi. Ushbu jarayonda quyidagi muhim shartlarga rioya etish maqsadga muvofiq ekanligi o'qitiladi: bilimli va komil shaxsni tarbiyalash, unda ma'naviy axloqiy sifatlari, chunonchi, xulq va munosabat madaniyatini shakllantirish. Ahmad Yugnakiy shaxsning ijobiy hislatlarini tarbiyalashda, avvalo, odillik kamtarlik chidamlilik odoblilik sahiylikka e'tibor berish kerak deb hisoblaydi.

Shunday qilib, Sharq mutafakkirlari inson, uning shaxsi va ta'lim-tarbiyasini tashkil etish, shuningdek unda mehnatsevarlik bilim olishga intilish, aqliy jihatdan kamolotga etishini ta'minlash, unda nutq madaniyati, so'z san'atini shakllantirish, yuksak ma'naviy - axloqiy sifatlarini tarbiyalash masalalarini o'rganishga katta ahamiyat berganlar. Ular insonni har tomonlama barkamol, bilimli bo'lishini tafakkurlarining pedagogik qarashlari metodologik xususiyatga ega

bo'lib, nafaqat ular yashagan davrlarda, balki bugungi kunda ham ijtimoiy ahamiyatga egadir. Muhammad al Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Umar Hayyom, Muslihiddin Sa'diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ahmad Yugnakiy, Mahmudxo'ja Behbudiy hamda Abdulla Avloniylarning ta'limiy qarashlaridan pedagogika oliy o'quv yurtlari, shuningdek pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutlarida, talabalar hamda amaliyotchi o'qituvchilarning kasbiy sifatlarini shakllantirishda ijodiy foydalanish mumkin.

1.2. Kar bolalar maktabining o'quv rejasi, o'quv dasturlari va darsliklar taxlili

Ta'lim mazmunini takomillashtirish o'rganilayotgan fanlarning rohati, har bir o'quv fani bo'yicha material hajmini aniqlash o'quv dasturlari va darsliklarda ortiqchalarini chiqarib tashlash, asosiy tushuncha va g'oyalarni aniq yoritib berish, o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan ko'nikma va malakalarni eng muvofiq hajmini belgilash yo'li bilan amalgam oshiriladi.

Alohida ahamiyat karlarni mustaqil bilim olish qobiliyatlarini ijodiy fikrlashlarini va kelajakdagi faoliyatlarining barcha turlarida yuzaga keladigan muammolarning mohiyatini aniqlab olish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratiladi. Kar o'quvchilarning umumiy va nutqiy rivojlanish xususiyatlarini ta'lim mazmuniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy – iqtisodiy va ilmiy – texnik rivojlanish, pedagogika fanning yutuqlari, surdopedagogikaning nazariyasi va amaliyoti keyinchalik ta'lim mazmunini doimo takomillashuvini talab etadi.

Ta'lim mazmuni o'quv rejasi, o'quv dasturlari va darsliklarda yoritilgan.

Kar bolalar maktabining o'quv rejasi. O'quv rejasi davlat tomonidan hujjat bo'lib, shu asosiy o'quv fanlari belgilanadi.

Unda o'quv yillari bo'yicha fanlarni o'qitish tartibi, ketma-ketligi, har bir o'quv faniga ajratilgan soatlar o'zni ko'rsatilgan bo'ladi. O'quv rejasini tuzishda kar

o'quvchilarning yosh xususiyatlari, ularning umumiy va nutqning rivojlanish darajasi e'tiborga olinadi. O'quv rejasida kar bolaning umumiy va kasb- mehnat ta'limining o'zaro bog'liqligi nazarda tutadi.

Karlar maktabida fanlar umum ta'lim maktablaridagidek bo'lib, faqat musiqa va chet tili darslari o'tilmaydi. Boshlang'ich sinflarda esa maxsus o'quv fani – amaliy ta'limga kiritilgan.

Umum ta'lim maktablaridan farqli karlar maktabining o'quv dasturida umumiy soatlar soni va ular o'quv fanlariga ajratilishida tafovutlar mavjud. Har bir o'quv fanini o'rganishga vaqtni taqsimlashda ushbu fanning karlarga umumiy va kasb ta'limi berish tizimidagi ahamiyati va o'rni, shu kasb bo'yicha nazariy ma'lumotlar va amaliy ishlar hajmi, shuningdek ularni kar o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish xususiyatlari e'tiborga olinadi.

Dasturlarda o'quv materialini joylashtirish chiziqli (lineynoy) va konzentrik shaklda bo'ladi. Dasturni chiziqli shaklda tuzishda o'quv kursining har bir keyingi qismi avvalgisining davomi bo'ladi. Har bir sinfda yangi mavzu va bo'limlar kiritilib ular o'quv vaqtini tejab tez sur'at bilan oldinga intilishga imkon beradi. O'rganilishi lozim bo'lgan material tizimi va ketma-ket, asta-sekin murakkablashtirilib joylashtiriladi. O'quv dasturi konzentrik tuzilishida ushbu fan materialini ta'limning keyingi bosqichida murakkablashgan tarzda takrorlanadi. Ba'zi bo'limlar, mavzular yoki kurs keyingi sinflarda takrorlanadi. Bunday yangilik o'rganilayotgan xodisa, tushuncha, qonunlarning ancha e'tiborli ilmiy tavsiflanishidir. Kar bolalar maktabining o'quv rejasini maxsus bo'lib, ya'ni eshitishni rivojlantirish bo'yicha yakka ishlash va talaffuzni shakllantirishning kiritilganligi bilan harakterlanadi. Maxsus konzentrikialash mashg'ulotlari 0-5-sinflarida har bir o'quvchi bilan yakka holda, 6-11-sinflarda esa guruhlarda olib boriladi (2,3 bola bilan).

Kar bolalar maktabining o'quv rejasini tushuntirish xati va o'quv yuklamasining

taqsimlanishidan iborat. Tushuntirish xatida o'quv yilining tuzilishi belgilanadi (choraklarning va ta'tillarning ketma-ketligi, muddati), shuningdek tashkiliy masalalar yuzasidan tafsiyalar beriladi.

Kar bolalar maktabining o'quv dasturlari.

O'quv dasturlari o'quv rejasi asosida har bir fan uchun tuziladi.

Dasturlarda har bir fanni o'qitishdan maqsad, uning mazmuni bolalar egallashi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar yoritilib beriladi, o'quv yillari bo'yicha fan va o'rganish tartibi ko'rsatiladi.

Kar bolalar maktabining boshlang'ich va o'rta sinflari maxsus dasturlar bo'yicha, yuqori sinflari – umum ta'lim maktabi maktablari dasturlari bo'yicha ishlaydi. Kar bolalar dasturlari umumiy pedagogik talablari asosida tuziladi. Shu bilan birgalikda kar bolalar tomonidan har bir o'quv fani bo'yicha bilimlarni egallash va amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish xususiyatlari e'tiborga olinadi. Dasturlarda u yoki bu bo'limni o'rganish jarayonida kar bolalar tomonidan egallanishi lozim bo'lgan nutq, materialining hajmi va xarakteri ko'rsatiladi.

Kar bolalar maktablari darsliklari.

O'quv rejasi asosida va o'quv dasturlariga muvofiq har bir fan bo'yicha darsliklar tuzilib, ularda tizimli tarzda o'quv fani mazmuni bayon etiladi. darsliklarning asosiy vazifasi – kar o'quvchilarga darsda olingan bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirishdir. O'quvchilarda mustaqil ishlarni shakllantirishda darslikning ahamiyati kattadir. Kitob bilan ishlash ko'nikmasi kar bolalarning ta'lim olishida muhim shartdir. Kar bolalar maktabining boshlang'ich va o'rta sinflarida maxsus darsliklardan foydalaniladi. Bu o'quvchining umumiy va nutqiy rivojlanishini e'tiborga olish bilan bog'liqdir. Yuqori sinflarda umum ta'lim maktablarining darsliklari qo'llaniladi. Kar bolalar uchun maxsus maktablarning darsliklarini tuzishda umumiy pedagogik va maxsus talablarni e'tiborga olish zarur.

Maktab darsliklarining mazmuni ta'lim maqsadlari, maktab vazifalari, o'quv dasturlariga, ilm fan texnikasining zamonaviy yutuqlari, fanlararo bog'lanishlariga

mos kelishi lozim. Unda asosiy ilmiy g'oyalarning, nazariya, qonun tushunchalarining mohiyati yoritilishi, hayot bilan bog'liqligi ochib berilishi kerak.

Darslikning mazmuni, shuningdek kar bolalarning har bir fanni o'rganish jarayonidagi nutqni o'stirish vazifalariga bog'liq bo'ladi.

Darslik mazmuni kar o'quvchilarga tushunarli bo'lishiga, ularning yosh xususiyatlari va bilish imkoniyatlariga, umumiy jivojlanish darajasiga, qobiliyatlariga va qiziqishlariga, avvalgi umumta'lim tayyorgarliklariga mos bo'lishiga katta ahamiyat beriladi.

Darslikda berilgan o'quv materialining umumiy hajmi ushbu kursni o'rganishga ajratilgan o'quv soatiga to'g'ri kelishi kerak. Kar o'quvchilarning darsliklariga alohida talab darslikning bayon etish tarziga qo'yiladi; o'quv materialini aniq, tushunarli tilda bayon etilib kar bolalarning nutqini rivojlantirish darajasining e'tiborga olinishi va uni rivojlantirish nazarda tutilishi lozim.

Darslikning metodik apparati kar o'quvchilarda o'rganilayotgan materialga qiziqish uyg'onishini jivojlantirishga, ularni ijodiy faollashtirishga, nazariy va amaliy malakalarni shakllantirishga qaratilishi lozim.

Metodik apparatda asosiy matnga kiritilgan yangi so'zlar yuzasidan olib boriladigan lug'at ishlari berilgan.

1.3. Karlar maktabida ta'lim samaradorligini oshiruvchi didaktik tamoyillar va ularning mazmuni

O'qitish tamoyillari o'qitish jarayoni komponentlari bo'lmish mazmun metodlar, tashkil etish shakllarini umumiy yo'nalishini aniqlab beradigan umumlashtirilgan, mustahkam eng muhim hamda universal talablarni ifodalaydi. Shu bilan birga o'quv bilish jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorligidagi faoliyati tarzini aniqlab beradi.

Tamoyillar o'quv jarayonining pedagogik tajribada doimiy ravishda namoyon bo'ladigan ma'lum qonuniyatlari va qonunlari bilan chambarchas bog'liq bolib, o'qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'ladi.

Kar bolalar zamonaviy umumta'lim maktablari umumiy pedagogikaga asoslab berilgan didaktik tamoyillar tizimi, ya'ni ilmiylik, onglilik va faollik, tushunarliklik, kop'rgazmalilik, puxtalik, yakka yondoshish, izchillik va muntazamlilik, nazariyani amaliyot bilan bog'liqlik va boshqa tamoyillar bo'yicha ish olib borishadi.

Bunda kar bolalar maktabida ulardan foydalanish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi hamda kar bolalarni o'qitish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini hisobga olgan holda maxsus xususiy tamoyillar ham ajratiladi: o'qitishning korreksion yo'nalishi, fan asoslariga o'qitishni so'z nutqini rivojlantirish bilan birgalikda olib borish, eshitish idrokni jadal ravishda rivojlantirish, fan- amaliy faoliyatga tayanish, nutqiy muloqotni jadallashtirish.

Hozirgi zamon pedagogikasida o`qituvchining faoliyati hamda o`quvchilar bilish faoliyati harakteri aniq didaktik tamoyillar bilan belgilanadi. Bunda karlarni o`qitishda foydalaniladigan didaktik tamoyillar keltiriladi.

Ilmiylik tamoyili.

Karlarni o`qitishda ilmiylik qoidasi hozirgi zamon fanida qat`iy qaror topgan qoidalarni o`quvchilarga o`zlashtirish uchun taklif qilinishini nazarda tutadi.

Ilmiy bilimlarni egallab olinishi ta`minlash uchun kichik yoshdagi maktab o`quvchilarining idrok qila olish imkoniyatlarini hisobga olgan holda eng muhim ilmiy ma`lumotlarni tanlab olishi kerak. O`quvchilarni idrok qila olish imkoniyatlari jismoniy kuch va aqliy kuchlanish talab qiluvchi o`quv mavzulari va amaliy masalalarni izchillik bilan murakkablashib borish jarayonida kengayib boradi. Keyinchalik harakterni to`g`ri aniqlash o`quvchilarning idrok qilish imkoniyatlarini kengayib borishiga, o`quv materialini izchillik bilan murakkablashib borishiga yordam beruvchi eng optimal metodik turni tanlab olishga imkon beradi. Bu o`quvchilarning aqliy taraqqiyotini asta-sekin ko`tarilishiga va ilmiy bilimlarni chuqurroq o`zlashtirib olishiga imkon beradi. O`quv materialining ilmiyligi tushunarli bo`lish bilan uyg`unlashishi kerak, buning uchun o`quvchilarning aqliy va ruhiy rivojlanishiga, shuningdek ularning tayyorgarligiga moslashtirish bilan erishiladi.

Bilimlar mazmunining tushunarlilik kichik yoshdagi maktab o`quvchilarida o`qishga qiziqish uyg`otadi, aqlga ozuqa beradi, mantiqiy fikrlashga, taqqoslash va xulosalar chiqarish, amaliy masalalarni yechishga majbur qiladi.

Kar o`quvchlarni o`qitish jarayonida nazariyani amaliyot bilan bog`lash tamoyili.

Nazariyani amaliyot bilan bog`lash o`quvchilarni amaliy masalalarini hal qilishda nazariyaning ahamiyatini tushunishga olib keladi, bu o`quv materialining o`zlashtirishda uning sifatini ko`taradi. Bu tamoyil mehnat ta`limi va o`quvchilarning

amaliy faoliyatiga tayyorlash vazifalarini hal qilishda alohida ahamiyat kasb etadi. O`qitishda nazariya bilan amaliyotning bog`lanish harakteri o`quv fanining mazmuni bilan taqozo qilinadi. O`qitishning nazariy bilimlar o`quvchilarnig tabiatning u yoki bu hodisalari bilan amaliy tanishtirish jarayonida puxtaroq o`zlashtirib olinadi.

Bunda amaliyot o`quvchilarni nazariyani o`zlashtirishga qiziqtirish uchun undan oldinroq kelishi mumkin.

O`quvchilarning tirik tabiat burchagidagi shuningdek o`simliklarning suvga, issiqlikka, yorug`likka ehtiyojini gul manzarali o`simliklarning o`sishi va rivojlanishiga organik va mineral og`itlarning ta`sirini pomidorning pishishi va hosildorligiga ko`chatlarning ko`chirib o`tkazilishining ta`sirini aniqlash bo`yicha tajribalar o`tkazish bilan bog`liq bo`lgan o`quv tajriba uchastkasidagi mehnat jarayonida nazariya bilan amaliyot bog`lanishi yaxshi amalga oshadi.

Darslarda nazariyaning amaliyot bilan bog`lanishini amalga oshirib borishda shuni esda tutish kerakki, o`quvchilarning amaliy faoliyati ularning nazariy bilimlarni o`zlashtirib olishga bo`lgan intilishlarini bo`shashtirmasligi lozim. Amaliy ishlar uchun shunday ob`yekt va tajribalarni tanlash kerakki, ular nazariy qoidalarni tasdiqlasin va bilimlarni chuqurlashtirish uchun xizmat qilsin.

Karlarni o`qitishda nazariyani amaliyot bilan bog`lanishi uning barcha bosqichlarida amalga oshirilmog`i va nazariy bilimlarning chuqurlashishiga va amaliy faoliyatiga tayyorlashga yordam berishi kerak. O`rganiladigan nazariy bilimlarning mazmuniga qarab, dars va darsdan tashqari mashg`ulotlarning har xil shakllari.

Karlarni o`qitishda o`quvchilarning ongliligi va ijodiy faolligi tamoyili.

O`quvchilarning ongliligi va ijodiy faolligi qoidasi: o`quvchilarning o`qishga ongli va ijodiy munosabatda bo`lishlarini; o`rganilayotgan materialni tushunib olishlari va tushunganlarini ifodalay olishlarini; o`qish mehnatini ijodiy harakterda bo`lishini; bilimlardan amaliyotda ongli qo`llanilishi va ularni ishonchga aylanishini

o`z ichiga oladi. Onglilik tamoyilini amalga oshrishda bosh rol o`qituvchiga taalluqlidir, u o`quvchi oldida turgan vazifalardan aniq qilib ifodalashi va ularni yaxshilab bajarishga qiziqish uyg`otishi kerak. O`qitishda onglilikni namoyon bo`lishining oliy shakli o`quvchilarning ijodiy faolligidir.

O`qitishning ko`rgazmalilik tamoyili.

Ko`rgazmalilik qo`idalaridan foydalanishning asosiy vazifasi o`quvchilarning bilish faoliyatlarini faollashtirishdir. Bu tamoyil atrof-olamni bevosita qabul qilib olish asosidagi o`qitishni nazarda tutadi.

Ko`rgazmalilik tamoyiliga rioya qilish tabiatni o`rgatishning dastlabki bosqichlarida ayniqsa muhimdir, chunki quyi yoshdagi maktab o`quvchilari ko`rganlarida hosil qilgan xususiy tashkilotlari asosida to`g`ri tushuncha va xulosalar hosil bo`lishiga yordam beruvchi to`la qimmatli bilimlar olishlari kerak.

Masalan: tabiatshunoslik bo`yicha dasturning organizmlar hayotini tabiiy sharoitlarda o`rganishga, tirik tabiat burchagida maktab oldi uchastkasida kuzatishlar o`tkazish, tajribalar o`tkazishga imkon beruvchi metodlarning qo`llanilishini, ya`ni o`quvchilarning bevosita yuz bilan yoki bevosita ko`rib, atrof olamning jism hamda hodisalari bilan yoki ularning tasvirlari bilan tanishishi deb tushuniladigan ko`rgazmali tamoyildan foydalanishni nazarda tutishi tasodifiy emas. Masalan: tabiatshunoslikni o`qitishdagi ko`rgazmalilikni mashg`ulotlar jarayonida faqat tabiiy jismlar foydalaniladigan yoki tajriba ko`rinishdagi hodisalarni eslatuvchi fanli ko`rgazmalikka va tabiat jismlari yoki hodisalarning jadal, doskadagi rasm, model, mulyaj, deopozitiv, kinofilm, xarita, sxema va boshqalardan foydalaniladigan tasviriylar ko`rgazmalikka ajratish maqsadga muvofiqdir. Fanli va tasviriylar ko`rgazmalilikni amalga oshirish asosida o`qitish, ayniqsa bolalar taraqqiyotining ertangi bosqichlarida, tafakkurni, kuzatuvchanlikni faollashtirishga yordam beradi, o`rganilayotgan masalalarga o`quvchilar qiziqishini oshiradi.

Ularni oddiy tadqiqotlar olib borishiga o`rgatadi, bilimlarni faol qabul qilishga yordamlashadi, ularni o`zlashtirib olish jarayonini osonlashtiradi, bilimlarning

mustahkamligini ta'minlaydi.

Tabiat jismlari va hodisalari ustida olib boriladigan kuzatishlar materialni tushunib olishga va o'zlashtirilganlarni mustahkamlashiga o'qituvchi rahbarligida tabiat hodisalar o'rtasidagi chuqur bog'lanishlarni aniqlashga jismlar tog'risidagi fikrlar bilan ko'rganlarni taqqoslashga imkon beradi. So'z bilan qabul qilish, so'z bilan tasavvur o'rtasida puxta bog'lanishlarning vujudga kelishi, o'quvchilarning tabiat jismlari va hodisalari to'g'risida o'qituvchi hikoya qilib berganlarining va ular to'g'risida darslikda yozilganlarning ahamiyatini tushunib olishlariga imkon beradi.

Bilimlarni puxta o'zlashtirishi tamoiyili

Bu tamoyil olingan bilimlarni shakllantirilgan o'quv hamda ko'nikmalarni o'quvchilar xotirasida uzoq saqlanishini nazarda tutadi. O'quvchilar bilimining puxta bo'lishi o'qituvchining ko'rsatib o'tilgan tamoyillardan o'quvchilarning taraqqiyot saviyasi hamda qiziqishiga qanchalik muvofiq tarzda foydalanishiga bog'liq.

Bilimlarni puxta bo'lishiga erishish uchun avvalo o'quv yili boshlanishidan ilgari o'tilgan materialni yangi bilimlarni o'zlashtirilishini ongli bo'lishi uchun tiklash zarur. Birinchi navbatda dasturning yangi material bilan ko'proq bog'liq bo'limlarini takrorlash lozim.

Bunda yangi bilimlarni o'zlashtirishning birinchi bosqichida o'qituvchi o'quvchilar yangi materialini asosli ravishda tushunarli va o'zlashtirib olishlari uchun uning barcha hajmini emas, balki asosiy mazmunini berish kerak.

Chunonchi, "Vatanimiz tabiatining xilma- xilligi" mavzusini o'rganishda o'quvchilarda avval o'lkadagi tabiiy sharoitning turli- tumanligi bilan keyin har bir zona bilan tanishadilar.

Bu yangi faktlar kiritib borish imkoniyatini beradi, ular yordamida xar bir zona uchun xos bo'lgan harakterli xususiyatlarini, jumladan, o'simlik va hayvonot dunyosi aniqlanib boradi, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiruvchi qo'shimcha ma'lumotlar berib boriladi.

Puxta bilimlarga erishishda ularni o'quvchilarning faol fikr yuritishlari asosida

tizimlashtirish alohida ahamiyat kasb etiladi. O`quvchilarning bilimlarini ilgari o`rganilgan material bilan bog`lab, yaxshiroq o`zlashtiradilar.

O`qitishda muntazamlilik va izchillik tamoyili

Atrofdagi olam haqida juda ko`plab ma`lumotlardan quyi yoshdagi maktab o`quvchilari uchun tabiatdagi mavsumiy o`zgarishlarni, Vatanimiz tabiatining xilma-xilligini, jonajon o`lka tabiatini va boshqalarni ochib beruvchi ta`lim tarbiyaviy jihatdan ancha qimmatli o`quv materialini tanlanadi.

Surdopedagogikaning asosiy vazifalaridan biri bu turli fanlar sohalarini qisqartirilgan bayoni emas, balki uning metodik tanlangan muntazamlashtirilgan metodlaridir.

Materialni bunday berilishi shu bilan izohlanadiki, quyi yoshli maktab o`quvchilarining tarbiya to`g`risidagi fan asoslarini faqat atrof olamning jism va hodisalarni aks ettiruvchi va ular o`rtasidagi bog`lanishlarni ochib beruvchi dastlab oddiy tabiiy ob`yektlar bilan, keyin esa murakkabrog`i bilan izchil tanishtirib borish jarayonida egallab olishlari mumkin.

Bu bilan o`qitishda muntazamlilik tamoyili amalga oshiriladi. O`qitishning muntazamliligi ya`ni tizimlilik bilimni bayon qilishda muayyan tizimga amal qilishdan tashqari amaliyot bilan bog`lanishining xilma-xil shakillarini amalga oshirilishini jumladan nazariy bilimlarni kuzatishlar va bilib olishga qaratilgan qiziqarli o`yinlar bilan atrofdan xayot va o`qitish amaliyoti bilan mehnat ta`limi va ijtimoiy foydali mehnat bilan maktab oldi uchastkasidagi ish va umumli mehnat bilan bog`lanishini nazarda tutadi.

Kurslarning izchilligi o`quvchilar uchun ularning yosh xususiyatlari tayyorgarligi va rivojlanishi shuningdek mazmunida vorislikka rioya qilish zaruratiga qarab o`quv materialining tushunarli bo`lishi bilan belgilanadi.

Chunonchi, maktab tabiatshunoslik kursi jonsiz tabiatdagi o`simlik va hayvonlar hayotidagi, odamlar mehnatidagi mavsumni o`zgarishlarni: jonajon o`lka tabiatni

odam organizimi va uning salomatligini, Vatanimiz tabiatini, undan foydalanish va uni muhofaza qilishga aks etuvchi materialni izchillik bilan o'rganishni talab qiladi.

Yakka yondashish tamoyili.

O'rta ta'lim tizimini qayta qilish sharoitida bolalarning yakka xususiyatlarini o'rganish tobora katta ahamiyat kasb etib bormoqda. Maktabga kirayotgan har bir bola muayyan axborot yig'indisiga va yakka xususiyatlarga ega, ular bilimlarni o'zlashtirish jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi. Biroq, o'qitish jarayonida bolalar gurihida bilimlarni o'zlashtirish darajasi bir xil bo'lish mumkin.

Binobarin bolalar taraqqiyotiga to'g'ri keladigan umumiylikni aniqlash mumkin. U rivojlanish darajasi, bilim zonasi, fikirlash xarakteri, faoliyat va xulq atvor baholarining o'xshashligi bo'lishi mumkin.

Ammo umumiylik bilan bir qatorda har bir o'quvchi uchun o'zining yakka xususiyatlari: diqqatning rivojlanishi, darsdagi xulq-atvorning xarakteri, fanga munosabati, ko'rgazmali va og'zaki materialni qabil qilinishining tezligi va aniqligi. O'quv materialini tushinib olishi va fikirlash xarakteri tabiat to'g'risidagi bilimlarning sifati va og'zaki yanada yozma nutqlarining rivojlanish darajasi o'ziga xosdir.

O'qituvchi, sinfda ish olib bora turib, har bir o'quvchi bilan yakka tarzda ishlash, ijobiy hislarni rivojlantirish va salbiylarini bartaraf qilish, sinfni jamoa ichiga tortish maqsadida har bir bolaning shaxsiy qobiliyatini o'rganish va hisobga olish zarurligini unutmasligi kerak.

O'qituvchining o'z o'quvchilarini yaxshi bilishi ularga yakka yondashishning asosi hisoblanadi, buning uchun u doim o'quvchilarni kuzatib, har xil faoliyat jarayonida o'rganib boradi. O'quvchilarning qanday o'zlashtirayotganidan qat'iy nazar, ular hammasiga yakka yondashish kerak. Qoloqlarga o'z vaqtida qo'shimcha yordam ko'rsatmoq zarur. O'qituvchi har bir topshiriqni o'quvchining yakka xususiyatlarini, shu topshiriqni uddalay olishini o'rganilayotgan ob'yektga nisbatan qiziqishini hisobga olgin holda berishi kerak.

O'quvchilarga yakka yondoshishga asoslangan o'qitish jarayoni o'quv

materialini muvoffaqqiyatli o`zlashtirilishini, bolaning aqliy rivojlanishini ta`minlaydi, axloqiy me`yorlarni singdiradi.

Korreksion yo`nalganlik tamoyili

Korreksion yo`nalganlik tamoyili bolaning sog`lom tomonlariga (kuchlarga tayanishini), kar bolaning rivojlanishida kompensator yo`lini ta`minlashni nazarda tutadi. Kar bola sog`lom miyaga ega bo`lib, ko`ragzama- harakatli va ko`rgazma- obrazli darajada atrof dunyo aks ettirib anglay oladilar.

Ifodali harakatlar tizimini emotsiya ishorali nutq egallab olib ular muloqotga kirishish ehtiyojini qidiradilar. Karlarda yo`qolgan, buzilgan eshitish funksiyasini qisman ko`rish, kinestitek va boshqa analizatorlar faoliyatini egallaydi. Saqlanib qolgan ko`rish idrokiga tayanish karlarda nutq a`zolarining ko`rinadigan harakatlar orqali og`zaki nutqni idrok etishning maxsus metodi- labdan o`qishni shakllantirishga imkon beradi. Bunda labdan o`qishning sifati tinglovchining faolligiga bog`liq. Bunday qarama- qarshi faollik eng avvalo kutilayotgan habarni ehtimollashda so`zlarni aks ettirib, talaffuz etishda berilayotgan barcha ma`lumotlarni qayta ishlashda namoyon bo`ladi.

Ko`rish teri va harakat analizatorlarning saqlangan funksiyasiga surdopedagog kar bolalarda talaffuzni shakllantirishda, nutqni nazorat qiliush malakasini hosil qilishda tayanadi. Saqlanib qolgan harakat va ko`rish analizatorlari kar bolalarga daktilalogiyani egallashga imkon beradi. Daktil nutq bolaning og`zaki nutqi shakllanish bosqichida aloqa qilishning ishonchli vositasi bo`lib xizmat qilolmagan davrda fikrlashni o`zlashtirish vositasi bo`lib xizmat qiladi.

Daktil nutqning kompensator ahamiyat shundan iboratki, u nutqiy aloqa qilish jarayonini osonlashtiradi va o`quvchilarning tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. Saqlangan harakat analizatori bolalarning predmetli- amaliy faoliyatini tashkil qilishda kompensator rol o`ynaydi. Bu o`z navbatida o`quv jarayonining samaradorligini oshirishga, o`quvchilarda mustaqillik va faollikni tarbiyalashga

imkon beradi.

Kar bolalar maktabining o`quv rejasi ham korreksion yo`nalganlik tamoyilini e`tiborga olgan holda tuzib, unga talaffuzni shakllantirish va eshitish idrokini rivojlantirish, tevarak atrof dunyo bilan tanishtirish predmetli - amaliy o`qitish fanlari keltirilgan. Korreksion yo`nalganlik tamoyili har bir darsda amalga oshiriladi. Surdopedagog bolalarda og`zaki nutqni shakllantirishga, bilim faoliyatini rivojlantirishga harakat qiladi, yangi tushunchalarni hosil qilayotib, o`qituvchi saqlangan barcha analizatorlarning ishini faollashtiradi.

Eshitishdan foydalanishiga va nutq ishini rivojlantirishga alohida ahamiyat beriladi.

Korreksion yo`nalganlik tamoyilini og`zaki metodlar bilan birgalikda ko`rgazmali va amaliy metodlar bilan birgalikda ko`rgazmali va amaliy metodlarni qo`llanishi nazarda tutadi.

Fan asoslarini va so`zlashuv nutqni o`zlashtirishda jarayonning birligi tamoyili.

Umumta`lim maktab o`quvchilari fan asoslarini maktabgacha yoshda saqlangan eshitish asosida kattalar va tengdoshlari bilan aloqa qilishda shakllangan nutq yordamida o`zlashtirib olsalar kar o`quvchilarda esa fan asoslarini va so`zlashuv nutqini egallash jarayonlari o`zaro aloqador. Lug`at zahirasini boyitish va grammatik qurilishini shakllantirish karga fan asoslarini egallash jarayonini osonlashtiradi va aksincha, fan asoslarini egallash o`quvchilar lug`atini yanada boyitib, og`zaki nutqni rivojlantiradi. Kar bolalar maktabining dasturlarida o`quv fani bo`yicha darslar mazmunini o`zlashtirish ishlari bilan parallel ravishda nutqni rivojlantirish ishlari zarurligi maxsus ta`kidlab o`tilgan.

Fan asoslarini va og`zaki nutqni o`zlashtirish jarayonining birligi tamoyili boshlang`ich sinf o`qituvchisi va fan o`qituvchisidan kar o`quvchilar nutqining barcha tamoyillarini (fonetik, grammatik, leksik) korreksiyanishi talab etiladi. Bu o`qituvchidan sinfning va har bir o`quvchisining nutq imkoniyatlarini bilishlarini, o`quvchining nutqiga yakka ish mazmunini e`tiborga olgan holda talablar qo`yishini

nazarda tutadi. Ushbu tamoyilga asoslanib fan o`qituvchisi o`z fani bo`yicha atamologiyani o`zlashtirishdan tashqari bolalar tomonidan boshqa fanlarni o`rganishda to`plangan lug`ati faollashtirishni amalga oshiradi. O`quvchilarni sinonimlar, antonimlar turli umumlashtiruvchi so`zlardan faol mashq qildirish mumkin, o`qituvchi o`quvchilarda bog`langan nutqning og`zaki va yozma shakllarini dialogik va monologik nutq malakalarini rivojlantirishga alohida ahamiyat berish kerak fan asoslari va og`zaki nutqni o`zlashtirish jarayonining birligi tamoyilini amalga oshirish quyidagilarga bog`liq:

- lug`at ishlarining nutqning grammatik qurilishining rivojlantirishdagi mashqlarning turli tumanligi umumta`lim fanlari darslarda mustaqil tuzilmalarni rivojlantirish;

- fan va fanlararo asosida lug`atdan faol foydalanishni jadallashtirish;

- izlanish faoliyatida bilish topshiriqlarini bajarishda so`z mantiqiy tafakkurini rivojlantirish.

Ta`limda karlarning eshitish idrokini rivojlantirish tamoyili.

Ta`limda eshitish idrokini jadal rivojlantirish tamoyili kar bolalarning atrofidagi odamlar nutqini eshitish ko`rish asosida yakka apparat yordamida aniq va to`liq idrok etish maqsadida qoldiqli eshitish funksiyasining imkoni bor darajada rivojlantirishni nazarda tutadi.

Ushbu tamoyil asosida kar bolalar uchun umumtalim maktablarining o`quv rejasi tuzilgan bo`lib, unda eshitish idrokini rivojlantirish va talaffuzni shakllantirish bo`yicha yakka mashg`ulotlarga alohida vaqt ajratilgan.

Eshitish idrokini rivojlantirish dasturida eshitish idrokini rivojlantirish bo`yicha ishning vazifalari uning mazmuni va tashkiliy shakllari ko`rsatib berilgan, asosiy talab ta`limini nutq eshitish sharoitida ovozni kuchaytiruvchi asboblardan keng foydalanish orqali amalga oshirishdir.

Eshitish idrokini jadal rivojlantirish tamoyili eshitishni mashq qilish va nutq tizimini kengaytirishni shunday sharoitlarni hosil qilishga yo`naltiradiki, unda kar

bola faqatgina eshitish, ko'rish kensittek taktil (vibratsion)

Sezgilardan bir vaqtning o'zida foydalanib borayotgan kenistik ma'lumotlarni interpretatsiya qilishigagina o'rganmasdan, balki unda ijobiy motifikatsiya nutqni eshitishda foydalanish ehtiyojini ishlab chiqadi.

Eshitish idrokini jadal rivojlantirish tamoyilini ta'sir idrok etayotgan narsa material mazmunini murakkablashtirishda va hajmini oshirishda namoyon bo'ladi. Dastavval chegaralangan tanlov vaziyatda fanlar raqamlash, so'zlar yozilgan qog'ozlardan foydalanib, eshitish bo'yicha tanish materialni ajratishga erishiladi.

So'ngra esa ko'rgazma materiallardan foydalanmay turib ajratishga o'tiladi, undan ham keyin ko'rgazmaga tayanmay notanish bo'lgan nutqiy material idrok etiladi. Eshitish idrokini jadal rivojlantirish tamoyilini izchillik bilan amalga oshirish natijasida kar o'quvchilar eshitish idroki rivojlanib, ularda eshitish lug'ati kengayadi.

Nutq materiallarini turli sharoitlarda (darsda, yakka mashg'ulotlarda, erkin faoliyatlarda) tanish va ajratish imkoniyati kengayadi.

E.P.Kuznechovning ma'lumot berishicha eshitish mashg'ulotlari natijasida birinchi sinf o'quvchilari 150 tagacha ikkinchi sinf o'quvchilari qo'shimcha 200 ta so'z, uchuichi sinf 300 ta yangi so'zni ajrata oladi.

Predmetli-amaliy faoliyatiga tayanish tamoyili.

Predmetli-amaliy faoliyatiga tayanish tamoyili kar bolaning psixologiyasini har tomonlama kompensator rivojlanishni ta'minlashda o'quvchining umumtalimga tayyorlanishiga va kasbiy yo'nalishida predmeti amaliy faoliyatning turli ko'rinishlaridan maxsus korreksiya vositasi sifatida keng foydalanish nazarda tutiladi.

S.A.Zukkovning ko'rsatishicha amaliy faoliyat sohasini e'tiborga olmaslik yoki inkor etish pedagogik jarayonining murakkablashishidir uning samaradorligini pasaytiradi. Predmet amaliy faoliyatning kar o'quvchilar tomonidan tilning grammatik tomonidan me'yorini o'zlashtirishda yutuqni o'zlashtirishdagi yo'li katta ahamiyatga egadir. Predmetli-amaliy faoliyat sharoitida kar o'quvchilarning bilim faoliyati takomillashadi.

Fanlardan amalda foydalanish (koʻzdan kechirish, paypaslash, koʻrib yasash) obʼyektlarining turli xususiyatlari va sifatlarini ular orasidagi baʼzi muhim munosabatlarni eshitishni rivojlantirishga yordam beradi. Predmetli-amaliy faoliyatni turli xillari kar oʻquvchilarda hayotiy tushunchalarni shakllantirish, fikrlash, mantiqiy bogʻlanishlarni oʻzlashtirib olish jarayonini osonlashtiradi. Bunday faoliyat jarayonida kar oʻquvchilar hayotdagi hodisa va voqealarni mantiqiy aloqadorligini oʻrgatish koʻnikmasini tezroq egallaydilar.

Predmetli-amaliy faoliyat harakat obekti ularning hususiyatlari va sifatlarini nomlarini beixtiyor eslab qolishni taʼminlaydi va soʻzning mantiqiy hodisalarini rivojlanishiga yordam beradi.

Predmetli-amaliy faoliyatga tayanish tamoyili dastur va oʻquv rejasiga “fanli amaliy taʼlim” fan va boshqa fanlar mazmunida predmetli-amaliy faoliyat natijasida amalga oshiriladi. Masalan: “Oʻqish va nutq oʻstirish” boʻlimiga yozilgan tushuntirish xatida oʻqilgan matnning mazmunini tahlil qilish, tayyor shakllardan yasash orqali koʻrsatib berish taklif qilingan. Matematika darsida konstruksiyalash va hisob choʻplaridan shakllar hosil qilish, bu shakllarni chizish va atrofdagi fanlardan ushbu shakllarni topish boʻyicha maxsus mashqni bajartirish, predmetli-amaliy faoliyatga tayanish tamoyilini muvofaqiyatli ravishda amalga oshirish oʻquvchilarning darsda turli ish shakllarini tashkillashtirish bilan bogʻliq.

Nutqiy aloqani jadallashtirish tamoyili.

Tilni oʻrganish nutqiy aloqa karlar uchun korreksiya kompensatsiya muhim vosita sifatida ahamiyatga ega. Nutqiy aloqani jadallshtirish tamoyili tilning kommentativ funksiyasini amalga oshirish karlarda nutq asosida aloqa qilish ehtiyojini shakllantirish uchun tarbiyaviy jarayonning barchasi boʻgʻinlarda oʻquvchilarning keng nutqiy amalyotni taʼminlashni zarurligi koʻrsatadi.

Nutqiy aloqani jadallashtirish tamoyili nutqni daktil, ogʻzaki va yozma shakllanishni nazarda tutadi. Daktil nutq boshlangʻich sinfdan kar bolaga soʻzlarni

og'zaki va yozma shakllari o'zlashtirilmagan vaqtda ta'lluqli ongli orqali daktil belgilar yordamida ifoda etishni ta'minlaydi.

Daktil nutqning og'zaki va yozma nutqning shakllantirishning o'zlashtirib olishni tezlashtirish vositasidir.

Yozma nutqni o'zlashtirish bolaning nutqiy aloqasini jadallashtirish maqsadida xizmat qiladi. Bunda nutqiy kommunikatsiyaning hisobot ariza xat shakllariga alohida ahamiyat beradi.

Og'zaki nutq daktil bilan bir vaqtda shakllanadi asosiy tovushlarni o'rganib oladi. Tilning alohida vositasi sifatida o'rganib olish og'zaki nutqni to'g'ri tashkil etish tushunarli talaffuz qilish. Uning sifatini oshirish uchun bolalarni rivojlanayotgan eshitishiga tayanish lozim.

Nutqiy eshitishni rivojlantirish bo'yicha ishlar barcha o'quv va sinfdan tashqari zarur kommentativ nutqiy aloqani jadallashtirishning muhim sharti hisoblanadi.

Nutqiy aloqani jadallashtirish tamoyilini amalga oshirish kar o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini shakllantirishda namoyon bo'ladi.

Ularga barcha fanlar bo'yicha darslarda rivojlantiradigan savollarga javob berish o'z munosabatlarini faoliyatini topshiriqni bajarganligini va hol ko'nikmalar kiradi.

Nutqiy aloqani jadallashtirish tamoyili turli fanlarning o'qitishning dastur talablariga aks ettirilgan. Dasturlarida nutqiy materialni tanlash ham shu tamoyilga asoslanadi.

Nutqiy aloqani jadallashtirish tamoyili o'quvchilardan darsda nutqni egallashni rag'batlantirishdan keng foydalanishni talab etadi: faoliyatning turli shakllarini didaktik o'yinlar, mashqlar tushuniladi.

Har bir darsda xulosa qilishda nutq faoliyatida ko'p foydalanishda o'quvchilarni rag'batlantiriladi.

II. BOB. KAR BOLALAR SHAXS SIFATIDA SHAKLLANISHIDA DIDAKTIK TAMOIYLLARNING O'RNI

2.1. Kar bolalar bolalar ta'lim - tarbiyasi samaradorligini oshirishda didaktik tamoyillarning o'zaro mutanosibligi

Tarbiya nazariyasi tarbiyaning mazmuni uning bolalar yoshiga bog'liqligi tarbiya tamoyillari hamda ulardan samaraliy foydalanish shart-sharoitlari o'quvchilarning maktabdan tashqari ishlari maktab oila mehnat jamoalarini jamoatchilikning bola tarbiyasidagi birgalikdagi ishlari mazmunini ochib beradi. Tarbiya nazariyasi va metodlari maktabdagi tarbiyaviy faoliyatning ilmiy asosini tashkil etadi.

Yetuk shaxs tarbiyalash tarbiyaning yagona maqsadidir. Shaxs tarbiyasida atroflicha yondashish obektif ravishda aqliy g'oyaviy, axloqiy, mehnat, nafosat va jismoniy tarbiya birligini jarayonida tashkil etishning yakka guruhli va ommaviy shakllarni vujudga keltirishning ham bu tizimlarning amal qilishini talab etadi.

Tarbiya jarayoni shaxsning ijtimoiy qadrli fazilatlarini shakllantirishga uning atrofga odamlarga o'ziga nisbatan munosabtlari ddoirasini vujudga keltirishga va kengaytirishga qaratilgan.

Surdopedagogikada tarkib topgan va milliy asoslangan tarbiya tamoyillari tizimi tarbiyaning hayot davomida u bilan bog'liqligini, shaxsiy, jamoada va jamoa orqali tarbiyalashni tarbiyaviy ta'sirning izchilligini va davomiyligini tarbiyalanuvchi shaxsiga nisbatan talabchanlik bilan hurmatni birligini tarbiyaning bolalarning yosh

va yakka xususiyatlariga mosligini ta'lim va tarbiyaning bog'liqligini tarbiyada atroflicha yondashishi tamoyillarini o'z ichiga oladi.

Tarbiyaviy ta'sirning tizimliliği uzluksizligi hayot bilan amaliyot bilan bog'liqlik tamoyillari tarbiyaviy tadbirlarning samarador bo'lishida zaruriy tamoyillardandir.

Ta'lim o'qitishning mahsuli bo'lib o'qitish jarayonida o'quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma, malakalar va tafakkur usullarining tizimi.

Ta'limga ega va tafakkurning tizimliliği ularning yaratuvchanlik insonparvarlik yo'nalishida qo'llanilishi belgilaydi.

Ta'limda ko'rgazmaliylik didaktika tamoyillaridan biri. Ko'rgazmalilik o'quv materialini o'quvchilarning bilim doirasini kengaytirishga ularning tafakkuri va kuzatuvchanligini rivojlantirishga katta yordam beradi. O'quvchilarning tevarak atrofidagi hodisa va predmetlarni idrok qilishlari natijasida ularda obektiv borliq haqida to'g'ri tasavvur hosil bo'ladi. Mazkur maxsus ta'lim jarayonida ko'rgazmali qurollardan foydalanish hosil qilingan bilim va malakalarning mustahkam bo'lishiga yordam beradi.

Ta'lim- tarbiyada individual yondashuv pedagogik amaliyotda har bir shaxsning rivojlanish xususiyati aqli madaniy saviyasi va bilim darajasi individual xususiyatlarini hisobga olgan holda munosabatda bo'lish tamoyili. Bu tamoyil aqliy yoki jismoniy bolalarga ta'lim tarbiya berishda muhim ahamiyatga ega.

Taqlid qilish biror shaxsning xatti- harakatini ixtiyoriy va ixtiyorsiz ravishda takrorlash. Maxsus ta'lim – tarbiya jarayonida keng qo'llaniluvchi ish usullaridan birini tashkil etadi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim jarayonida pedagogga taqlid qilishlari asosida ma'lum ko'nikma va malakalarni egallaydilar.

Tarbiya jarayonida didaktik tamoyillar mutanosib tarzda bir biriga uzviy bog'langan holda olib boriladi.

Bu tamoyillarning barchasi bolaning ta'lim tarbiya olish jarayonida muhim omil

bo'lib xizmat qiladi. Bularning barchasi o'quvchining ongi, dunyoqarashi, tafakkuri va idrokining shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi va o'quv jarayonida samarali faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Didaktik tamoyillar bilan bir qatorda didaktik o'yinlar ham bola tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yishni taminlab keladi. O'yin bola hayotining uzviy qismidir. O'yin orqali bola atrof muhit tabiat hodisalari, manzaralari, buyumlar, o'simliklar, hayvonlar dunyosi bilan tanishadi.

Boshlang'ich ta'lim davrida o'quvchilarning aqliy va jismoniy faoliyatini tashkil qilishda didaktik o'yinlar alohida ahamiyatga ega. Didaktik o'yinlar o'quvchilar ongini charxlaydi so'z boyligi oshishi og'zaki nutqni rivojlantirishda mukammal inson bo'lib kamol toptirish kuchiga ega. Didaktik o'yinlar jarayonida o'quvchilar o'yin qoidalariga qat'iy rioya qilishga o'rgatadi inoqlik xis - tuyg'ulari dunyoqarashlari shakllanadi. Ayniqsa o'yin jarayonida ularning idroki, zehni, xotirasi bilim olish ishtiyoqi va ehtiyoji mustahkamlana boshlaydi, ziyrakligi diqqat topqirligi ortib boradi. O'quvchilarning istedodi ijobiy qobiliyati namoyon bo'la boshlaydi.

Ta'lim jarayonida didaktik o'yinlar o'quvchilarning yosh xususiyatlariga ko'ra tashkil etishi kerak. Bu esa ularga bilim berishga qaratilgan bo'lib o'quvchilarni toliqtirmaslik zeriktirmaslik uchun imkoniyat yaratadi. Didaktik o'yinlarni xilma xil usulda tashkil etish mumkin. Qo'g'irchoqlar, o'yinchoqlar, rasmlar va tarqatmalardan foydalanib turli geometrik shakllardan ham foydalanish mumkin. Har bir didaktik o'yinni boshlashdan oldin bolalarga o'yinning qonun qoidalari mazmuni yakuni nimadan iborat ekani o'qituvchilar uni tushunib anglab shu asosda harakat qiladi.

Didak tamoyillarini o'zaro mutanosibligini ko'rib o'tarkanmiz dastlab ilmiylik tamoyilini oladigan bo'lsak ushbu tamoyilda bolalar aniq qoida qaror va shu o'rinda teoremlarni ilmiy asosda o'rganilsa nazaryaning amaliyot bilan birligi fanida ushbu qaror va farmonlar ilmiy olingan teoremlar amalyotga tadbiq etiladi buning natijasi samarasi kam vaqt sarflab ko'p natijaga erishish onglilik va ijodiy faoliyati tamoyilida

o'quvchilar fanga ongli va ijodiy yondashishi ko'zda tutiladi. Xuddi shu tariqa har bir tamoil bola tarbiyasi samaradorligini oshirishda o'zaro mutanosib holda bir – biri bilan bog'liq tarzda shakllanib olib boriladi. Ularning har biri o'z o'rniga ega bo'lib biror tamoyildan foydalanilmasa bola tarbiyasida samarali tarbiya berish birmuncha susayadi.

2.2. Kar bolalar eshitish idrokini rivojlantirishda didaktik tamoiylarning vazifasi

Eshitish idrokini rivojlantirishda ta'limda eshitish idrokini jadal rivojlantirish tamoyilidan foydalanilib kelinadi. Eshitish idrokini jadal rivojlantirish kar bolalarni atrofidagi odamlar nutqini eshitish ko'rish asosida yakka aparat yordamida aniq va to'liq idrok etish maqsadida qoldiqli eshitish funksiyasini imkoniyat darajasida rivojlantirishni nazarda tutadi.

Ushbu tamoil asosida umumta'lim maktabining o'quv rejasi kar bolalar uchun ham tuzilgan bo'lib bunda eshitish idrokini rivojlantirish va tafakkurni shakllantirish bo'yicha yakka mashg'ulotlarga alohida e'tibor qaratiladi.

Eshitish idrokini rivojlantirish dasturida eshitish idrokini rivojlantirish bo'yicha ishlarning vazifalari uning mazmuni va tashkiliy shakllari ko'rsatib beriladi. Asosiy talab ta'limni nutq eshitish sharoitida ovozni kuchaytiruvchi asboblardan keng foydalangan holda amalgam oshiriladi.

Eshitish idrokini jadal rivojlantirish tamoyilli eshitishni mashq qilish va sensor bazani kengaytirishning shunday didaktik sharoitlarini hosil qilishga yo'naltiradiki ularda kar bola faqatgina eshitish ko'rish knestetik tarbiyalanuvchi taktil tebranuvchi (vibrakion sezgilardan bir vaqtning o'zida foydalanib borayotgan akkustik ma'lumotlarni interpretakiya qilishgagina o'rganmasdan balki unda ijodiy motivatsiya nutqni eshitishida foydalanish ehtiyojini ishlab chiqadi).

Eshitish idrokini jadal rivojlanishida tamoyilning ta'siri idrok etilayotgan nutq materialidan mazmunni murakkablashtirish nutqning hajmini oshirishda namoyon bo'ladi.

Dastavval chegaralangan tanlov vaziyatida fanlar rasmlar so'zlar yozilgan qog'ozlardan foydalnib eshitish bo'yicha tanish materialni ajratishdan foydalaniladi materialni ajratishga erishiladi.

So'ngra esa ko'rgazma vositalar shakllar rasmlar so'zlardan foydalanmay turib so'zlarni materialni ajratishga erishiladi. Shunda bu usulning so'ngida keyinchalik ko'rgazma materiallardan foydalanmay materiallar ajratila boshlaydi idrok etiladi.

Eshitish idrokini jadal rivojlanirish tamoyilini izchillik bilan amalgam oshirish natijasida har o'quvchining eshitish idroki rivojlanib eshitish lug'ati kengayadi. Nutq materialini turli sharoitlarda (darsda, yakka mashg'ulotlarda, erkin faoliyatda) tanish va ajratib olishning imkonini beradi va bu imkoniyatlar kengaytirib boriladi.

E.P.Kuzmichovanning ma'lumot berishicha eshitish mashqlari yordamida birinchi sinf o'quvchilari 150 tacha 2-sinf o'quvchilari qo'shimcha 200 ta so'z, 3-sinf o'quvchilari yangi 300 ta so'zni ajrata oladi.

Bolalar idrokini shakllantirishda didaktik tamoyillarning o'ziga xos o'rni roli mavjud.

Masalan: Ilmiylik bilimlarning egallab olishini taminlash uchun kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining idrok qila olishlarini hisobga olgan holda eng muhim ilmiy ma'lumotlarni tanlab olish kerak.

O'quvchilarning idrok qila olish qobiliyatlari imkoniyatlari jismoniy kuch va kuchlanish talab qiluvchi o'quv mazmunlari va amlaiy masalalarini izchillik bilan murakkablashtirib boorish jarayonida kengayib boradi. Qiyinchilik harakterini to'g'ri aniqlash o'quvchilarning idrok qilish qobiliyatlarini imkoniyatlarini kengayib borishiga o'quv jarayonini o'quv materiallarini izchillik bilan murakkablashib

borishiga yordam beradigan eng optimal metodik turni tanlab berishga imkon beradi. Bu o'quvchilarning aqliy taraqqiyotini asta sekin ko'tarilishiga imkon beradi.

Ko'rgazmalikdan foydalanib o'quvchilarning idrok qilish qobiliyatlari o'quvchining bilish faoliyatini faolashtiradi.

Ko'rgazmalilik asosida to'g'ri tushuncha va xulosalar hosil qilishga yordam beradi va to'la ximmatli bilim olishlari kerak.

Masalan: Tabiatshunoslik bo'yicha dasturning organizmlar hayoti bo'yicha turli sharoitlarda o'rganishda tirik tabiat burchagida maktaboldi uchaskasida kuzatishlar o'tkazish tajribalar metodlarning qo'llanilishi ya'ni o'quvchilarning bevosita ko'rib yoki bevosita ko'z bilan ko'rib atrof olamning jism yoki hodisalarni birga yoki ularning tasvirlari bilan tanishishi deb tushuniladigan ko'rgazmali tamoildan foydalanishni nazarda tutishi tasodifiy emas. Shu orqali bolani tabiatni idrok etish qobiliyat imkoniyati oshirib boriladi. Bolalarni oddiy tadqiqot olib borishga o'rgatadi. Bilimlarni faol qabul qilishga yordamlashadi ularni o'zlashtirib olish jarayonini osonlashtiradi bilimlarning mustahkamlanishini taminlaydi.

Kurslarning izchilligi o'quvchilar uchun ularning yoshi xususiyatlari tayyorgarligi va rivojlanishi shuningdek mazmunda vorislikka rioya qilish zaruriyatiga qarab o'quv materialning tushunarli bo'lishiga intiladi. Sodda va tushunarli tushunish oson materiallarni idrok qilish shunchalik tez va samarali bo'lib hisoblanadi. Zaif eshituvchi bolalar maktabida eshitish qobiliyati pas bo'lgan bolalar o'qitiladi quloqdan har qanday masofada eshitish imkonini beradi.

Nutq diapazo'ning 50 dan to 80 dbgacha va turli nutq holatlarida eshitish qobiliyatini yo'qolishi zaif eshituvchilar maktab o'quvchilarida turli hil so'z va jummalarni ajratish imkoniyatlarini kuzatish mumkin. Shunda L.V.Neyman ko'rsatishida ko'pchilik I bo'lim ishtirokchilari 90% dan ko'proq so'zni ajrata oladilar (quloq oldida normal balandlikda talaffuz qilish orqali) II bo'lim 60 – 62%

o'quvchilari 70% dan ko'proq so'zlarni ajratadi.

Shunga ko'ra maxsus ta'limda zaif eshituvchi bolalar ta'lim tarbiya xususiyatlarini yechishda muhim masala hisoblanadi. Zaif eshituvchilarda eshitish funksiyasini qoldiqlarini tekshirishlar shuni ko'rsatdiki maxsus tashkil qilingan o'quv jarayoni va mashq qilish yordamida bu funktsiya rivojlanadi. Eshitish idrokini rivojlantirishda ona tili va nutq o'stirish mashg'ulotlari muhim rol o'ynaydi. Shunda zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirish darajasini olishadi.

Pasaygan eshitish funksiyasini rivojlantirishda maxsus mashqlar bajarilishini ro'li katta. Tekshirishlarning ko'rsatishicha 256 dan to 2048 gacha va 60 db pasayish diapazonida eshitish saqlangan va bir qancha santimetr masofada nutqni idrok qila oladi maxsus ta'limgacha 1 qancha so'zlar va oddiy nutq jumllariga ega bo'lgan bolalar bilan maxsus tizimda eshitish ishlarini olib borishi natijasida bu bolalar 10 m masofadagi nutqni idrok qila oladigan maxsus ta'limgacha va atrofdagilar bilan munosabatda bo'la olish imkoniyatlarini beradi. Shunda bolaning lug'at boyligi muloqat jarayonida oshadi. Zaif eshituvchi bolalarning idrokini rivojlantirishga muhim siljishlarga erishish imkoniyati borligini ko'rsatadi. Shunda bolaning lug'at boyligi ortadi. Tajribali surdopedagoglar mashq qilgan va shu mashqlar ta'sirida eshitishda nutqni idrok qilish darajasi oshadi undan tashqari o'quvchilar nutq materialini idrok qilish masofasi kengayadi. Zaif eshituvchi bolalarning akustik nutq idrokini potensial imkoniyatlarini rivojlantirish maqsadida maxsus maktablarda butun o'quv tarbiyaviy jarayon eshitish nutqini rivojlantirish va shakllantirishga qaratiladi. Zaif eshituvchi bolalarning nutqiy muomila jarayonida o'quvchilar va tarbiyachilar o'quv tashkiliy ishlarida bolalarning butunlay nutqini shakllantirishga eshitish qobiliyatini jadal qilishga intilishadilar. Zaif eshituvchilar ona tili va boshqa darslarda o'qituvchisi va sinfdagi boshqa do'stlari nutqini eshitishi yordamida idrok qiladi.

Dastur materiallarida umumta'lim darslari hamma darslarda va darsdan tashqari mashg'ulotlarida nutqiy ma'lumotlarni eshitish eshitib idrok qilishga mashqlar

o'tkazadilar. Hamma o'quv mashg'ulotlarida (o'quv ishi) o'quvchilarning eshitish qobiliyatlarini rivojlantirish ishida o'zgartirish kiritishga qaratilgan. Zaif eshituvchi bolalarning eshitish qobiliyatining buzulishini yengib o'tish uchun eshitish idrokini rivojlantirish va to'g'ri talaffuzini shakllantirish uchun maxsus yakka mashg'ulotlar asosiy rol o'ynaydi. Eshitish idrokini rivojlantirish maxsus mashqlar og'zaki nutqni o'zlashtirish uchun ijobiy sharoit yaratiladi.

O'z navbatida eshitish nuqsonining yo'qolishi eshitish nutqining yuksalishi uchun eshitish va ko'rib-eshitish asosida talaffuziga o'rgatiladi.

2.3. Kar bolalar tafakkurini shakllantirishda didaktik tamoiyillardan samarali foydalanish yo'llari

Surdopedagogikaning metodlari eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'rganish, ularni o'qitishni nisbatan yuqori pog'onaga ko'tarish, shuningdek ushbu toifa shaxslarni kelgusi hayotda o'z o'rnini topishlariga muvaffaq bo'lishlari juda zarur.

Buning uchun qator metod va yo'llardan foydalaniladi. Kar bolalar maktabida ta'lim mazmuni deganda, ta'lim jarayonida o'quvchilar egallab olishlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning ma'lum bir hajmi va tizimi tushuniladi.

Ta'limning mazmuni kar o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishining asosini tashkil etadi.

Bilim - ta'lim mazmunining asosiy elementi bo'lib, o'quvchilar tomonidan atrof borliqdagi fan va hodisalarni, tabiatning va jamiyatning rivojlanish qonuniyatlarini bilib olishning natijasidir. Bilimda insoniyatning ijtimoiy tarixiy amaliyotida tanlangan tajribalari aks etadi. Kar o'quvchilarning ta'lim jarayonida egallagan turli sifatlariga; chuqur, to'la, tizimli va tizimlilik, aniqlik va umumlashgan, onglik va turg'unlikka ega bo'lishi lozim.

Ko'nikmalar kar bolalar tomonidan egallangan bilimlar asosida qo'yilgan vazifalarga muvofiq bajariladigan ongli harakatlarning murakkab tizimini tashkil etadi.

Malakalar bir harakatning bir xil yoki o'xshash sharoitda ko'p marta takrorlash

yo'li bilan hosil qilinadi. Bu avtomatlashgan harakatlar no'lib, ongli nazorat ostida aniq, tez, aqliy va jismoniy kuchlarni ko'p sarflamasdan bajariladi.

Tafakkur sotsial salbiy nutq bilan chambarchas bog'liq muhim bir yangilik qidirish va ochishdan iborat psixik protsesdir boshqacha qilib aytganda tafakkur voqelikni analiz qilish sintez qilishda uni bevosita va umumlashtirishdan ancha tashqariga chiqib ketadi. Masalan har bir maktab o'quvchisi biror o'quv vazifasini yechar ekan o'zi uchun qandaydir yangilik ochadi.

Tafakkur amaliy faoliyat asosida xususiy bilishdan paydo bo'ladi va xususiy bilishdan ancha tashqariga chiqib ketadi. Masalan har bir maktab o'quvchisi biror o'quv vazifasini yechar ekan o'zi uchun qandaydir yangilik ochadi.

Tafakkurni rivojlantirishdagi mashqlar oddiydan murakkabga tamon kuzatiladi. Shu sababdan mashg'ulotlar ketmaketligini o'zgartirmay mashg'ulot o'tish maqsadga muvofiqdir. Agar bola topshiriqni tushunmasa yana takror tushuntiring. Keyingi topshiriqqa o'tish uchun sodda topshiriqlar bajarilgan bo'lishi shart. Albatta ish davomida bolani rag'batlantirib boorish lozim.

Bolalar psixik rivojlanishining boshqa tomonlari bilan nutq buzilishining chambarchas bog'liqligiga ular tafakkurining o'ziga xos bazi xususiyatlari sabab bo'ladi. Tafakkurning oliyligi va murakkabligi shundaki u idrokdan farqli bevosita aks ettirish bo'lmay narsalar va ularning xossalarini ular yo'q paytda ham aks ettirishga imkon beradi. Kallamizga kelgan barcha o'y-xayollar bu fikrlardir. Normal insonni fikrsiz tasavvur qilib bo'lmaydi har on har daqiqada odam miyasi qandaydir fikrlar bilan band bo'ladi.

Tafakkur sezgilar va idrok qilish jarayonlari orqali tashqi olam bilan bevosita bog'lanadi hamda shu tariqa tashqi olamni aks ettiradi.

Xissiy bilish yetarli bo'lmay qolgan yoki hatto ojizlik qilib qolgan joyda tafakkur boshlanadi.

Fikrlar muvakkat nerf bog'lanishlar differentsirovka qilinishi ya'ni ayrim nerf

bog'lanishlarini mustaxkamlanishi kuzatiladi va aniqlanib boradi.

Miya pustining bunday faoliyati analitik faoliyat deyiladi. Tafakkurning individual sifatlari turli odamlarda shu tariqa namoyon bo'ladiki fikr yuritish faoliyatining bu har xil va o'zaro bir birini to'ldiruvchi qismi turli xil shakllarning munosabati ularda har xil tarzda yuzaga keladi.

Tafakkurning individual xususiyatlariga bilish faoliyatining mustaqillik fikrning tezligi va boshqa sifatlari ham kiradi.

Tafakkurning mustaqilligi dastavval yangi masala yangi muammoni ko'ra bilish va qo'ya bilishda undan so'ng esa ularni o'z kuchi bilan yecha bilishda namoyon bo'ladi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning tafakkur qilish jarayonini shakllantirish asosan o'yinlar orqali amalga oshirilib bunda bolaning o'yin faoliyati davomida o'zini qanday tutishi berilgan muammoli vaziyatdan qanday yo'l topib masalaning yechimini topishida uni tafakkur qilishi qanchalik tez aniq va bu bolada bilish fikrlash qobiliyatining qay darajada ekanini ko'rishimiz mumkin.

Tafakkurni rivojlantirish uchun bolalarga asosan rasmlari ko'rgazmali o'yinlar berishimiz mumkin. Bunda dastlab sodda so'ngra murakkab o'yinlardan foydalanamiz.

Misol tariqasida dastavval bolaga "4 chisi ortiqcha" o'yinini o'ynatishimiz mumkin. Bunda bolaga bir turga kiruvchi predmetlar ko'rsatiladi faqat ushbu predmetlardan uchta bir sinfga tegishli bo'lsa boshqa oilaga mansub bir predmet bo'ladi va ushbu rasmlar bolaning yoniga qo'yilib undan "Qaysinisi ortiqcha va anima uchun?" degan savol beramiz va bola ushbu rasmlardan qaysinisi ortiqcha ekanini aytadi va anima uchun buni tanlaganini sababini tushuntirib beradi.

Shuning natijasida biz boladagi tafakkur qilish qobiliyatlari qay darajada ekanligini aniqlab olamiz agar bola har bir o'yinni yaxshi bajarsa unga keyingi o'yinni o'rgatamiz agar bajara olmasa qayta tushuntiramiz va qaytadan o'ynatamiz

o'yin davomida bolaning ruhi cho'kmasligi uchun uni rag'batlantirib borishimiz lozim. Chunki rag'bat bolani ruhiyatini ko'tarib uni o'yinga o'qishga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi va tengdoshlaridan qolib ketmaslikga harakat qiladi.

Bolaga uning nuqsonini hech qachon eslatmang shunda bola erkin tafakkur yuritishga va tafakkuri maxsulini boshqalarga o'qtuvchisiga aytishga chochimaydi. Erkin tafakkur qilish esa bolalarning ijodiy qobiliyatlarini to'g'irlaydi. Bola tarbiyasida samaradorlikni oshiradi.

Bola oddiy o'yinni topshiriqlarini to'g'ri bajara olgandan so'ng unga biroz murakkab o'yinlar berishimiz mumkin. Bu o'yinlarda bolaga turli ko'rgazlar rasmlar orqali murojat qilishimiz mumkin. Masalan "kam qismini top", "rasmlarni tartibli joylashtir", "rasmdagi predmetga mos rasm juftini topib chiz", "rasmni davom etdir", "shakllarni to'ldirib predmetni hosil qil", "o'quv papkaga nimalarni joylash kerak", "qarama qarshi ma'noli rasmlarni top", "doiralarni qizilda bo'ya", "geometric shakl yordamida predmetni hosil qil", "ishoralarni to'g'ri qo'yib misol yechish" va shu kabi bir qancha o'yinlar o'tkazishimiz mumkin.

Murakkab o'yin o'tkazilayotgan vaqtda bolaning diqqati bir joyda bo'lishi va o'qtuvchi tarbiyachi unga ko'maklashib turishi lozim. Masalan bolaga qalashib yotgan predmetlarni bir nechtasini yani idish tovoqlar rasmi o'quv qurollar rasmi uy jihozlarning qalashib yotgan rasmini berib ulardan qaysinisi ortiqcha v anima uchun deb savol beriladi va o'z o'rnida bolaga yordam berib borishimiz lozim.

Bolani kamchiligini aytib yutuqlarini keltirib o'tamiz va o'z o'rnida bolani rag'batlantirib boramiz.

O'yinlarni guruh qilib o'tkazish ham birmuncha yaxshi natija berib bunda bola o'z fikrini aytishga mustaqil bayon qilishga qo'rqishi iymenib tortinishi fikrim hato bo'lsa dakki eshitaman deb tortinishi mumkin. Bunday hollarda ularga guruh a'zolari yordam beradi. Ustozga aytmoqchi bo'lgan gapini jamoadoshlari bilan birga ayta olishi mumkin shunda bolani fikrini qo'llab quvvatlab o'z o'rnida rag'batlantirib

boring so'ngra bola muallimdan qo'rqmaydigan va o'zi o'yindan olgan xulosani yoki masala yechimini shaxsiy fikrini iymanmay bayon qila boshlaydi.

XULOSA

Ta'lim olishda barcha fuqarolarning irqiy, milliy diniy mansubligi, mulkiy va ijtimoiy holatidan qat'iy nazar ularning barchasi teng huquqlidir.

Bu mamlakatimizda karlar eshitadiganlar bilan teng fuqarolik huquqlariga, jumladan ta'lim olish huquqiga egalar, demakdir. Ta'lim olish, to'laqonli mehnat va ijtimoiy hayotga jalb bo'lish ularning jamiyatdagi ijtimoiy reabiliaksiyasi uchun asos bo'ladi.

Ma'lumki, bizning mamlakatimizda ta'lim barcha bolalar va o'smirlar uchun majburiydir. Bu holat O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida o'z ifodasini topgan bo'lib, mazkur qonun, shuningdek "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" bosqichma-bosqich amalgam oshirilib borilmoqda.

Majburiy to'liqsiz o'rta ta'lim, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda o'qish eshitishida nuqsoni bo'lgan shaxslar uchun barcha tildagi maxsus o'quv-tarbiya muassasalarining ham sifat jihatidan takamillashuvini ko'zda tutadi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan shaxslar uchun barcha o'quv yurtlari davlat va ijtimoiy harekterga ega.

Kar va zaif eshituvchilar uchun barcha muassasalar davlat tomonidan ochiladi, ta'minlanadi va boshqariladi. Shu bilan birga nodavlat ta'lim muassasalari ham mustaqillik mevasi sifatida o'z faoliyatini yuritmoqda. Biroq ulardagi ta'lim-tatbiya ishlari ham davlat ta'lim standartlari asosida olib borilayotir.

Kar va zaif eshituvchilar uchun barcha muassasalarda ta'lim tilini erkintanlash holati joriy etilgan.

O'zbekiston Respublikasida har bir fuqaro o'zi istagan tilda ta'lim olish huquqiga ega.

U yoki bu millat vakillari ko'p istiqomat qiladigan hududlarda va u millat tilida ta'lim olib boorish imkoniyatlari mavjud. Kar va zaif eshituvchilar ta'limning barcha turlaridan bepul foydalanish huquqiaga ega. Bunday holat har bir kar va zaif eshituvchi fuqarolar uchun kafolatlanadi.

O'zbekiston Respublikasi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar va kattalar uchun ta'lim muassasalarining barchasi to'liq davlat ta'minotida bo'lib, ularda ta'lim olish bepuldir. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablar va internatlar ular tilida bo'lib, bu holat ta'lim va tarbiya ushuni optimal sharoitlar yaratadi. Maktab-internatlardagi bolalar barcha zarur narsalar, jumladan, kiyim-bosh, oziq-ovqat, darslik, o'quv qo'llanmalari, sildotexnik apparatlari va boshqalar bilan davlat hisobidan ta'minlanadi.

Kar va zaif eshituvchilar ta'lim tizimi uzluksizligi va barcha tildagi o'quv muassasalari vorisiligi holati mavjud.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar va kattalar uchun ta'lim muassasalari, uning bo'g'inlari birligi va vorisligi asosiga kiritilib, har bir bosqich o'z vazifalarini o'taydi va ayni paytda keyingisi bilan bog'liq. Barcha muassasalar faoliyati asosida yagona maqsad bolalar rivojlanishidagi buzilishlarning oldini olish va korrektsiyalash, shaxsni har tomonlama shakllantirish va hayotga, mehnatga tayyorlashdir. Bu umumiy maqsad butun ta'lim tizimi va uning har bir bo'g'ini ishini yo'naltiradi.

Bolalar ta'lim va tarbiyasi ularning kompensator imkoniyatlarini safarbar etish asosida amalgam oshiriladi. Kar va zaif eshituvchilar ta'lim va tarbiyasi insonparvarligi zamonaviy fan yutuqlari aks etgan ta'lim mazmunida oydinlashadi.

Barcha ta'lim-tarbiya muassasalari faoliyati inson manfaatlari yo'lida xizmat qiladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ta'lim jarayoni dunyoviy xarakterga

ega.

O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosi o'zi istagan dinga e'tiqod qilish, yoki hech bir dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Shu bilan birga ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiya dunyoviy xarakterda amalgam oshiriladi. Ta'lim tizimi umum pedagogic tamoyillari bilan bir qatorda maxsus o'quv-tarbiya muassasalari kar va zaif eshituvchilar tarbiyasi va ta'lim jarayoni qonuniyatlarini hisobga oladigan o'ziga xos tamoyillarga hamamal qiladilar.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim va tarbiyasi differensaksiyalashgan holda olib boriladi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda rivojlanishidagi orqada qolishlarni korreksiyalash va kompensasiyalash samaradorligi ko'p jihatdan ta'limga differensaksiyalashgan va yakka holda yondashuvga bog'liq. Maxsus o'quv muassasalari differensiyalangan tarmog'I amalda maktablarning turli turlari karlar uchun, eshitishida nuqsoni bo'lgan va kech kar bo'lib qolgan bolalar uchun maktab bo'limlari va maktablarning barcha turlarida ikki yoqlama nuqsonli bolalar uchun maxsus sinflar tashkil qilinishidir.

Maktablarning turli genlarida ta'lim eshitish funksiyasidagi nuqson darajasi va nutqning rivojlanganlik darajasini hisobga olib amalgam oshiriladi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'limi differensaksiyasi masalalarini ishlab chiqish hali davom etmoqda, zero ularni o'rganish jarayonida va pedagogik amaliyotida eshitishida nuqsoni bo'lgan va boshqa nuqsonlari bo'lgan bolalarning yangi guruhleri aniqlanmoqda.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktabida didaktik tamoyillarni amalgam oshirish natijasida bolalarga ta'lim-tarbiya berish samaradorligini oshishini yaqqol ko'rishimiz mumkin. Chunki bunday tamoyillardan bo'lgan ko'rgazmalilik nazaryani amalyot bilan uzviyligi eshitish idrokini jadal rivojlantirish kabi yana bir qator tamoyillar bola kamchiligini korreksiyalashda muhim omil bo'lib sanaladi.

Zaif eshituvchi yoki kar bolalarni tarbiyalashda ulardagi ijobiy sifatlarni shakllantirishda didaktik tamoyillarni amalgam oshirishda didaktik o'yinlardan keng foydalanish mumkin. Chunki zaif eshituvchi ya'ni eshitishda nuqsoni bor bolalarga biror mavzu biror narsa haqida tasavvurini hosil qildirishda unga shu mavzuga tegishli rasm ko'rsatib shu narsa hodisa haqidagi ma'lumotlarni aytsagina ushbu bolaning tushunishi oson kechadi va bola xotirasida ushbu mavzu yaxshi saqlanadi.

Didaktik tamoyillar orqali bola ko'plab ma'lumotlarni aniq va to'g'ri tushunsa yana boshqa didaktik tamoyil uning eshitish idrokini rivojlantirib keladi. Boshqa didaktik tamoyil orqali bolaning nutqiy aloqasini muloqotni jadallashtirishga xizmat qiladi. Korreksion yo'nalganlik tamoyili boladagi sog'lom tomonlarga tayanishni boladagi kompensator yo'lni taminlashni nazarda tutadi. Xullas shunday har bir tamoyil bolaning turli sifatlarini rivojlantirish va shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. «O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» – Toshkent: Sharq, 1997.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent. Ma'naviyat. 2008 y.
3. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent. O'zbekiston-2011.
4. O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni (1997 yil 29 avgustda qabul qilingan). Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: O'zbekiston. 1997.
5. Korovin K.G. Usovenie osnovnx grammaticeskix ponyatiy uchashimisiya starshix klassov shkolq slaboslqshamix. -M., 1982.
6. Logopediya (pod red. L.S.Volkovoy). M., 2002
7. Paramonova L.G. Metodicheskie ukazaniya po vqyavleniyu i korreksiinarusheniy sluxovoy differenceasix zvukov rechi u slaboslqshashix shkol'nikov. L., 1981
8. Rau F.F., Neyman L.V., Bel'tyukov V.I. Ispol'zovanie i razvitie sluxovogo vospriyatiya u gluxonemx i tugoux uchashixsya.-M., 1981.
9. Traugott N.N., Kaydanova S.N. Narushenie sluxa pri sensornoy alalii afazi. -L., 1975.
10. Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etish to'g'risida muvaqqat NIZOM. O'RXTV T., 19 sentyabr, 2005.
11. Surdopedagogika pod red. Nikitinoy M.I. M., Prosveshenie, 2002
12. Muminova L.R., Ayupova M.Yu. Logopediya. T., 1995
13. Raxmanova V.S Maxsus pedagogika G'ofur G'ulom nashriyoti, Toshkent, 2004
14. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazlari Nizom. T., 2005
15. Shomaxmudova R. Bolalar talaffuzidagi nuqsonlarni bartaraf etish. T., 2001

16. Sodiqova G.A., Nurkeldieva D.A. Rivojlanishi orqada qolgan bolalar diagnostikasi (ma'ruzalar matni) T., 2001
17. Ta'lim xamma uchun» milliy dasturini joriy qilish bosqichlari. O'RXTV. YuNISEF, RTM T.,2005
18. Po'latova F., Oligfrenopedagogika . G'ofur G'ulom, 2006
19. «Salamanka deklaratsiyasi». –Ispaniya.Salamanka shaxri, 1994 y.
20. Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika instituti Defektologiya kafedrası professor-o'qituvchilari tomonidan yaratilgan ma'ruza matnlari
21. Ko'rishida muammosi bo'lgan bolalar inklyuziv ta'limi. Tuzuvchi Grigoryants N.A..Saidakbarova T.,Fayzieva Z.Sh. O'RXTV, BMT Yunisev Xalqaro bolalar jamg'armasi, T., 2005.
22. FayzievaU.Yu., Abdurazakova D.Do'stona munosabat muxitidagi maktab. O`XTV Avloniy nomidagi XTRXMOMI, BMT Yunisef.XBJ. T., 2005.
23. FayzievaU., Nazarova D., Kolbaeva X.J.Eshitishida muammolari bo'lgan bolalar inklyuziv ta'limi. O`XTV Avloniy nomidagi XTRXMOMI, BMT Yunisef. XBJ. T., 2005.
24. “Maktab va hayot” ilmiy – metodik jurnal.
25. F.J.Alimxojaeva Zaif eshituvchi bolaning eshitish qobiliyati va talafuzini tekshirish (1-5 sinflar uchun)-T O'qituvchi 1999.
26. WWW.pedagog.uz
27. WWW.TDPU.uz
28. ZiyonET.www.@mail.ru